


JABBOROVA O.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ME'YORIY XUJJATLARNI YURITISH





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Jabborova O.M.

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA
ME’YORIY XUJJATLARNI YURITISH**

Chirchiq – 2023

«Zebo prints»

UO'K: 373

KBK: 74.1

Jabborova O. / Boshlang'ich ta'limda me'yoriy xujjatlarni yuritish.
/ O'quv qo'llanma. - Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 128 bet.

Mazkur O'quv qo'llanma oliy pedagogik ta'lim muassasalarining 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va mustaqil tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'lib, unda boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritishning asoslari, metodikasi hamda samaradorligi masalalari tahlil etilgan. Ushbu O'quv qo'llanma boshlang'ich ta'limni tashkil etish va boshqarish bo'yicha yangi o'quv dasturi asosida yaratilgan ilk o'quv adabiyoti hisoblanadi hamda unda o'qitishning kredit-modul tizimi talablariga amal qilingan.

MAS'UL MUHARRIR:

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, pedagogika fanlari doktori,
professor

TAQRIZCHILAR:

Kuchkinov Abdumalik Yo'ldoshevich, pedagogika fanlari no'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Po'latova Dildora Turgunovna, pedagogika fanlari no'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi 68-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN

© Jabborova O., 2023

©«Zebo prints», 2023

MUNDARIJA

1-MODUL: “Boshlang‘ich ta’limning asosiy me’yoriy hujjatlari”	4
1-mavzu: Boshlang‘ich ta’limning qonun hujjatlari	4
2-mavzu: Boshlang‘ich ta’limning tashkiliy hujjatlari	16
3-mavzu: Boshlang‘ich ta’limning halqaro ta’lim hujjatlari	27
4-mavzu: Boshlang‘ich ta’limning me’yoriy hujjatlarini o‘rganish tizimi	39
5-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarining pedagogik faoliyatdagi ahamiyati	46
2-MODUL. “Boshlang‘ich ta’limning me’yoriy hujjatlarini yuritish metodikasi”	54
6-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini tizimlashtirish	54
7-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarining ijrosini ta’minlash	61
8-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritishni takomillashtirib borish	68
9-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha hisobot tayyorlash	74
3-MODUL. «Boshlang‘ich ta’limning me’yoriy hujjatlarini yuritish samaradorligi»	83
10-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha individual tajribani shakllantirish	83
11-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish	89
12-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritishni texnologiyalashtirish	97
13-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini monitoring qilib borish	103
14-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha arxiv ishi	109
15-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha yangiliklarni o‘rganib borish tizimi	115
Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar	121
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	122
Glossariy	124

1-MODUL: “BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING ASOSIY ME’YORIY HUJJATLARI”

1-mavzu: Boshlang‘ich ta’limning qonun hujjatlari

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida boshlang‘ich ta’limga oid normalar.
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning boshlang‘ich ta’limga oid normalarini o‘rganish.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning boshlang‘ich ta’limga oid sharhlarini o‘zlashtirish.

Tayanch tushunchalar:

Qonun, boshlang‘ich, ta’lim, me’yor, xujjat, norma, tashkil etish, o‘rganish, o‘zlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida boshlang‘ich ta’limga oid normalar. Me’yoriy hujjat – bu muayyan huquqiy va qonuniy jihatdan tartibga solingan hamda tegishli davlat boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar majmui

hisoblanadi.¹Shu jihatdan bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning asosiy me’yoriy hujjatlari mamlakatimizda quyidagilar hisoblanadi:

- 1) ta’limga oid qonunlar;
- 2) Milliy malaka ramkasi;
- 3) davlat ta’lim standartlari va malaka talablari;
- 4) o‘quv reja va dasturlar.

Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich ta’limning asosiy me’yoriy hujjati O‘zbekiston Respublikasi “*Ta’lim to‘g‘risida*”gi Qonuni tahliliga tortamiz.

Mamlakatimizda amaldagi O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahririda 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan va uning asosida ta’lim tizimini tashkil etish hamda boshqarish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Qonun 11 bob va 75 moddadan iborat. Mazkur qonun milliy me’yoriy hujjatlar tajribasi va jahon huquqi an’analariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda ushbu qonunning eng avvalo *normalariga* e’tibor berish kerak bo‘ladi. Norma – bu me’yoriy hujjatlarning asosli mezonlari bo‘lib, ular huquqiy va majburiy tusga ega hisoblanadi. Shu jihatdan ta’lim to‘g‘risidagi milliy Qonunimizning normalarini aniqlab olish va o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhimdir. Qonunda

¹ Қаранг: Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент, 2009. Аҳлиддинов Р. Мактаб бошқарувида ички назорат. – Тошкент, 1996. Аҳмедов Р. Ўзбекистон Республикасида мактаб таълими тизимини бошқаришнинг меъёрий хусусиятлари. – Тошкент, 1997. Мирқосимов М. Мактаб бошқарувининг назарий ва педагогик асослари. – Тошкент, 1997. Каримжонов А. Таълим тизимини бошқариш асослари. – Тошкент, 2012 ва ҳ.к.

boshlang'ich ta'limga oid quyidagi yo'nalishlarda normalar belgilangan:

- a) asosiy tushunchalar izohi;
- b) boshlang'ich ta'limni tashkil etish huquqlari va majburiyatlari;
- v) boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarish asoslari;
- g) boshlang'ich ta'lim samaradorligini baholashning huquqiy omillari.

Ushbu normalarga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tashkil etiladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasi yo'lga qo'yiladi.

Qonunning 4-moddasiga binoan "o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlash majburiy" hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limga o'quvchilar 7 yoshga kiradigan yilida qabul qilinadi. Mazkur moddaga asosan bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dod rag'batlantiriladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim jarayoniga qabul qilishda ularga bilim berish, qobiliyatini rivojlantirish va iste'dodini ro'yobga chiqarish asosiy maqsad hisoblanadi. Bular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ayni ushbu qonun asosida faoliyat yuritishadi.

Qonunning 6-moddasiga binoan mamlakatimizda ta'lim tizimini quyidagilar tashkid etadi:

- davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari;
- ta'limni amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- ta'lim sifatini amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- ilmiy-pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasini boshqarish organlari.

Bu tizim asosida mamlakatimizda ta'lim amalga oshiriladi. Misol uchun, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi maktabgacha ta'limdan boshlab doktorantura ta'limigacha bo'lgan ta'lim jarayonining sifatini monitoring qiladi. Unda sifatli ta'lim berish, maqsadli tarbiyani amalga oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv-tarbiyalanganlik darajasini aniqlash masalalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan mamlakatimizda ta'lim tizimi yagona va uzluksiz hisoblanadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rganish. Ushbu qonunning 9-moddasiga binoan mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni qamrab oladi. Bunda boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilangan: “Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxondlik, bilim, malaka va

ko‘nikmalar asoslarini shakllantiradi”. Bu o‘rinda quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarni bilim olamiga olib kiradi va o‘quvchilarni ta‘limning keyingi bosqichiga tayyorlaydi. Mazkur o‘rinda ta‘kidlash lozimki, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarni nafapqat umumiy o‘rta ta‘limga, balki ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga ham tayyorlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining *savodxonligini* tarkib toptiradi. Unga ko‘ra, 7 yoshli o‘quvchilarda o‘qish, yozish va hisobni o‘rgatish ularni savodxonlik darajasini shakllantirish hisoblanadi. Ayni paytda, yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 2026 yilga borib o‘quvchilarning savodxonligini tarkib toptirish maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining vazifasi sifatida belgilangan. Demak, kelgusida boshlang‘ich ta‘limning savodxonlikni tarkib toptirish vazifasi maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga o‘tkaziladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur normani to‘g‘ri o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta‘limning *bilim berish* vazifasi shundan iboratki, o‘quvchilar dastlabki bosqichda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishadi. Bunda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini tarkib toptirish, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Ayni paytda, mazkur vazifasining ijrosi

jarayonida o'quvchilarning layoqati fanlar kesimi asosida aniqlanadi va ularni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich ta'limning navbatdagi vazifasi o'quvchilarga *malaka berish*dan iborat. Mazkur qonunning 3-moddasiga binoan, "malaka-shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar majmuidir". Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakasini tarkib toptirish deganda ularning mahoratlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Aynan mana shunday tushunish boshlang'ich ta'limning malaka berish vazifasini mazmunini tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'limning yana bir vazifasi o'quvchilarda *ko'nikma asoslarini* shakllantirishdan iborat. Ko'nikma - bu muayyan xarakterning tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarishdir.² Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'nikma asoslarini tarkib toptirish deganda ularda bilim olish va tarbiyalanish jarayonida aniq va maqsadli xarakterlarni tarkib toptirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'nikma asoslarini tarkib toptirish ularning keyingi ta'limdagi faoliyati uchun asos hisoblanadi.

E'tibor berilsa ta'lim to'g'risidagi Qonunda boshlang'ich ta'limning vazifalari aniq belgilab qo'yilgan. Eslatib o'tish joizki,

²Хасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т., 2009. 239-бет

mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich (1-4 sinflar), tayanch o'rta ta'lim (5-9 sinflar) va o'rta ta'lim (10-11 sinflar) bosqichlariga bo'linadi. Bunda asosiy ta'lim va tarbiyaviy vazifa boshlang'ich ta'lim bosqichi zimmasiga tushishiga e'tibor berish kerak. Shu sababli mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli professional o'qituvchilar tayyorlash muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur normalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Qonunning 9-moddasiga binoan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida ta'lim oluvchilar soni 35 nafardan oshmasligi kerak. Demak, boshlang'ich sinflarda 35 nafar o'quvchi bitta guruh hisoblanadi va shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarning guruhlar ko'p bo'lib, asosiy e'tibor guruhlar kesimida sifatli boshlang'ich ta'lim berishga qaratiladi. Buning ma'nosi shuki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinflardagi guruhlar vositasida sifatli ta'lim berish malakasini egallashi kerak.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limning vazifalari aniq belgilangani holda, uning muhim tarkibiy qismi tarbiya masalasiga doir vazifalar belgilangan emas. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda tarbiya asoslari mazkur qonunning 4-moddasiga binoan shakllantiriladi. Unga ko'ra, o'quvchilar huquqlarining ustuvorligi, demokratik fazilatlarning tarkib

toptirilishi va dunyoviy faoliyatga tayyorlanishi masalalari boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya asoslarini tashkil etadi. Shu sababli huquqiylik, demokratlik va dunyoviylik tamoyillari boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonining tayanchlari hisoblanadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning muhim bosqich ekanligi hisobga olinib, mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli professional o'qituvchilar tayyorlash jarayoni amalga oshirilmoqda. Misol uchun ushbu qonunning 11-moddasiga binoan "fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega". Shu jihatdan nopedagog oliy ma'lumotli shaxslar ham ikkinchi oliy ta'limni olish vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchisi kvalifikatsiyasiga ega bo'lish mumkin. Bu hol boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlash ko'lamini kengaytiradi.

Diqqat qilinsa, ta'lim to'g'risidagi Qonunimizda boshlang'ich ta'limni tashkil etish asoslari huquqiy jihatdan tartibga solingan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid sharhlarini o'zlashtirish. Ushbu qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rganish oliy pedagogik ta'lim jarayonida muhim hisoblanadi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) qonuning umumiy tuzilishi va mazmunidan xabardor bo'lish;

2) qonunning boshlang‘ich ta‘limga oid normalarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘zlashtirish;

3) boshlang‘ich ta‘limga oid normalar bo‘yicha huquq, vazifa va majburiyatlarni o‘rganish.

Qonunning umumiy tuzilishi va mazmuni mamlakatimizning ta‘lim tizimi to‘g‘risida to‘liq tushuncha beradi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uning mazmuni bo‘yicha umumiy ma‘lumotlarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, Respublikamizda maktabgacha ta‘lim bosqichi O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni bilan ham tartibga solinadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan ta‘limga oid yagona va tipik bo‘lgan me‘yoriy hujjat Ta‘lim Kodeksini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu Kodeksning mazmuniga ko‘ra ta‘lim tizimining har bir bosqichi, jumladan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichining huquqlari, vazifalari va majburiyatlari aniq belgilab qo‘yiladi.

Ushbu Qonunning boshlang‘ich ta‘limga oid normalarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘zlashtirish ularning ma‘no-mazmuniga e‘tibor berish bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, har bir modda bir-birini to‘ldirib kelishi mantig‘iga diqqat qilish kerak. Unga ko‘ra, bitta moddada aks etgan huquq va majburiyatlar navbatdagi moddalarda aniqlashtirib taqdim etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining

ushbu qonunni individual tarzda o‘zlashtirishi kutilgan samarani beradi.

Qonunimizda boshlang‘ich ta’limga oid huquq, vazifa va majburiyatlar aniq belgilab qo‘yilgan. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining huquqlari ustuvor bo‘lishi va o‘qituvchilarning ta’lim berish texnologiyalarini erkin tanlash huquqiga egaligi masalalariga e’tibor berish kerak. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy vazifasi sifatida ta’lim olish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifalari esa o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish, jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda ularni tarbiyalash va o‘quvchilarni keyingi ta’lim bosqichlariga yuksak darajada tayyorlashdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining majburiyatlari maktab me’yoriy hujjatlariga va tartiblariga qat’iy rioya qilish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy majburiyati davlat ta’lim standartlari hamda malaka talablarini bajarishdan iborat. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilar va pedagoglarning huquq, vazifa hamda majburiyatlarini aniq holda o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning boshlang‘ich ta’limga oid sharhlarini o‘zlashtirish. Mazkur qonunimizning boshlang‘ich ta’limga oid normalarini sharhlar vositasida o‘rganish muhim hisoblanadi. Bunday sharhlar quyidagi ko‘rinishlarda taqdim etiladi:

- 1) bevosita Qonunning o‘ziga berilgan sharhlar;**

2) qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalariga maxsus berilgan sharhlar;

3) o'quv adabiyotlarida berilgan sharhlar.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga muayyan o'zgarishlar yoki qo'shimchalar bo'lganida uning yangi nashrida bevosita bu holatlar aks ettiriladi. Shu sababli qonunni o'rganishda imkonqadar uning eng so'nggi nashriga tayanish tavsiya etiladi. Buning uchun rasmiy portallarda e'lon qilingan nashrga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalari huquqshunos, siyosatshunos va tajribali pedagoglar tomonidan maxsus sharhlanadi. Bunday sharhlar mamlakatimizda "O'zbekiston Respublikasi Qonunlari" majmuasida e'lon qilinadi va bunday majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan muntazam ravishda nashr etib boriladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mazkur manbadan foydalanish tavsiya etiladi. Ayni paytda, qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalari darsliklar, o'quv qo'llanmalar kabi o'quv adabiyotlarida ham sharhlab o'tiladi. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich ta'limga oid vazifalarning bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga qaratiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quv adabiyotlarida berilgan sharhlar vositasida ham Qonunni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

E'tibor berilsa, mamlakatimizda ta'lim to'g'risidagi Qonun umumiy ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'lim bosqichining

xususiyatlari to'g'risida aniq ko'nikma beradi. Kezi kelganda ta'kidlab o'tish lozimki, Qonunning normalari va uning sharhlarini belgilashda milliy qonunchiligimiz tajribasi hamda halqaro ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarga asoslaniladi. Shu sababli mazkur qonunimiz ekspertlar tomonidan yuqori baholangan.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limning qonun hujjatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni chuqur o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich ta'limga oid normalar qanday belgilangan?
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rgaishda nimalarga e'tibor berish lozim?
3. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid sharhlarini o'zlashtirish qanday amalga oshiriladi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini o'qib chiqing va undagi boshlang'ich ta'limga oid normalarni konspekt qiling.

2-mavzu: Boshlang'ich ta'limning tashkiliy hujjatlari

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va uning mazmuni
2. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari va malaka talablari
3. Boshlang'ich ta'lim hujjatlar shakllari

Tayanch tushunchalar:

Milliy malaka, ramka, mexanizm, baholash tizimi, kasbiy bilim, kasbiy ko'nikma, komponent, standart, hujjat.

O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va uning mazmuni. Milliy ta'lim va tarbiya tizimimiz tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi 287-son Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.³Bu o'rinda *ramka* tushunchasi qoida, tartib va intizom ma'nolarida ishlatilgan. Milliy malakalar ramkasi pedagogik milliy tajribamiz va YUNESKO tomonidan tavsiya etilgan halqaro baholash ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan. Uning *asosiy maqsadi* mamlakatimizda ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishning mexanizmlari, tarmoqlararo

³Ўзбекистон Республикаси Миллий малакалар рамкаси. // www.ziyounet.uz

malaka talablari va kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini belgilashdan iborat. Mazkur hujjat asosida davlat ta'lim standartlari, davlat malaka talablari va kasbiy ko'nikmalarning me'yorlari belgilanadi. Shu sababli Milliy malakalar ramkasi quyidagilarni ta'minlashga yo'naltiriladi:

kasbga o'qitish natijalari va o'qitish natijasida olinadigan bilimlar, mahoratlar, ko'nikmalar va kompetensiyalarni uyg'unlashtirish;

kasbga o'qitish va mehnat bozorining malakalarga ehtiyojlari orasida o'zaro aloqadorlikning mustahkam tizimini shakllantirish;

kasbga o'qitish va mehnat tajribasi natijalarining malaka talablariga va kasb standartlariga mosligini baholash jarayonini amalga oshirish;

milliy va halqaro darajalarda malakalarni tan olish.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan o'qitish, tarbiya va amaliyot jarayonining *malakalarini* belgilash mazkur hujjatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu sababli ushbu Qaror bilan tasdiqlangan "Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan quyidagi tushunchalarni o'zlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:⁴

⁴Шу жойда.

1) *malaka* – xodim yoki kasbga talabgorning bilimi, mahorati va ko‘nikmalarining tegishli kasb va mutaxassislik bo‘yicha aniq tayyorgarlik darajasi;

2) *malaka darajasi* – xodim yoki kasbga talabgorning tayyorgarligi va ko‘nikmalari darajasi bo‘yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

3) *milliy malakalar tizimi*–ta’lim, o‘qitish, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi yoki butun umr davomida muvofiqlikka ega bo‘lgan mexanizmlar majmui.

E’tibor berilsa, bu tushunchalarni o‘zlashtirish Milliy malakalar ramkasi bo‘yicha bilimga ega bo‘lishga olib keladi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, ta’lim tizimida malaka eng asosiy tushuncha bo‘lib, u kasbiy bilim, kasbiy ko‘nikma va kasbiy mahoratning majmui hisoblanadi.

Milliy malakalar ramkasida va ta’kidlangan Nizomda iqtisodiyot sohasining tarmoqlari bo‘yicha muayyan malakalarning o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi belgilangan. Misol uchun, pedagoglik kasbga qo‘yiladigan malaka talablarida asosiy e’tibor talabgorning ta’lim va tarbiya bo‘yicha nazariy bilim, metodologik ko‘nikma hamda amaliy metodik mahoratga ega bo‘lishiga qaratiladi. Yoki, psixologik kasbga qo‘yiladigan malaka talablarida asosan talabgorning shaxs ruhiyati bo‘yicha amaliy bilim va metodik mahoratga ega bo‘lishiga diqqat qilinadi. Shu jihatdan Milliy malakalar ramkasida belgilangan tushunchalarning oliy

pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining majburiy (pedagogik-mutaxassislik) fanlar va tanlov fanlari vositasida yoki mustaqil ta'lim asosida chuqur o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki innovasion jamiyat sharoitida Milliy malakalar ramkasida belgilangan qoidalarga asosan kasbiy talablarga ko'ra malaka toifalari berib boriladi. Misol uchun, kelgusida oliy pedagogik ta'lim jarayonida ham professor-o'qituvchilarning malaka toifa asosida faoliyat yuritishi nazarda tutilgan. Shu sababli mazkur xujjatni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Milliy malakalar ramkasi va ta'kidlangan Nizomga asosan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagilar bo'yicha o'ziga xos ko'nikmaga ega bo'lishi kerak:

1) *kasbiy kompetensiya* – xodimning kasbiy faoliyatda bilimlar, ko'nikmalar, mahorat va tajribani qo'llash qobiliyati hamda ularga qo'yiladigan talablar. Bu o'rinda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

bilim–bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik, ilmiy, nazariy va metodik tushunchalari majmui;

ko'nikma – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining dars berish, ta'limni amalga oshirish va tarbiyaviy tadbirlarni yo'lga qo'yish usullari;

mahorat – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish layoqatlari majmui;

tajriba – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar majmui.

Mazkur tushunchalarni o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

2) *baholash usullari*–kasbiy imtixonni o‘tkazishda kompetensiyalarni baholash markazlari tomonidan qo‘llaniladigan va talabgorning belgilangan mezonlar hamda kasb standartlariga mosligini aniqlashga qaratilgan usullar majmuasi. Mazkur o‘rinda quyidagilarga e’tibor berish kerak bo‘ladi:

kasbiy imtixon – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mutaxassislik va tanlov fanlari bo‘yicha belgilangan kredit modul tizimi majmuini egallashi;

baholash usullari – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim oluvchilarni bilimi, tarbiyaviy ko‘nikmasi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini aniq baholay olish tizimi;

baholash markazlari – kasbiy imtixon natijalarini baholovchi hay’at, kafedra, fakultet yoki maxsus belgilangan tashkilotlar (masalan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash inspeksiyasi);

mezonlar – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablar;

kasb standartlari – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati asoslarini belgilaydigan me‘yorlar.

E‘tibor berilsa, mazkur tushunchalarni o‘zlashtirish zaruriyat hisoblanadi va ularni o‘zlashtirishda Milliy malaklar ramkasi hamda ta’kidlangan Nizomda berilgan ta’riflarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Milliy malakalar ramkasida mazkur hujjat Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi hamda Rossiya Federasiyasining Milliy malaklar ramkasiga mosligi alohida ta’kidlangan. Buning ma’nosi shuki, ushbu hujjat asosida milliy ta’lim tizimimiz jahon mamlakatlari ta’lim tizimiga integrasiyalashib boradi. Shu sababli mazkur hujjatni nazariy va kasbiy jihatdan to‘liq o‘zlashtirish taqozo etiladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, Milliy malaklar ramkasi mazmuni va uning vazifalari to‘g‘risida ilmiy-nazariy hamda amaliy-metodik ishlanmalar yaratish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standartlari va malaka talablari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son Qarori bilan “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlari” tasdiqlangan.⁵*Davlat ta’lim standarti* – ta’lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va uning

⁵Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартлари. // www.ziyounet.uz

sifatini baholash tartibini belgilaydi. Shu jihatdan standart – bu tartibga solingan me'yoriy hujjatdir, aynan davlat ta'lim standartlari asosan o'quv rejalari, dasturlari, darsliklari va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqiladi.

Davlat malaka talablari – bu o'qitish, ta'lim va tarbiya berish jarayonida asoslaniladigan mezonlar majmuidir. Shu sababli davlat ta'lim talablari davlat ta'lim standartlarining uzviy qismi sifatida qaraladi va ta'lim-tarbiya jarayoni unda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va malaka talablari boshlang'ich sinf o'quv fanlari kesimida aniq ishlab chiqilgan. Bunda quyidagi tamoyillarga tayanilgan:

- davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablari hamda shaxs ehtiyojiga mosligi;
- o'quv dasturlari mazmunining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;
- umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi va h.k.

Mazkur tamoyillar asosida boshlang'ich sinfning o'quv fanlari kesimida davlat ta'lim standartlari va malaka talablari belgilangan. Misol uchun, “Ona tili va o'qish savodxonligi” o'quv fani bo'yicha boshlang'ich sinflarda o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi shart:

a) O'qish texnikasi bo'yicha:

Boshlang'ich sinf o'quvchisi 1 daqiqada 80-90 so'zni o'qiy olishi kerak. Bunda quyidagi talablar qo'yiladi:

- harflarni to'g'ri talaffuz etish;
- so'zlarni to'g'ri o'qish;
- gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qish;
- gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish va h.k.

b) Matn mazmunini va o'zgaralar fikrini anglash malakasi bo'yicha:

Boshlang'ich sinflarda o'quvchi 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olishi kerak. Buning uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi;
- monologik (yakka tartibdagi) nutqning ravon bo'lishi;
- deologik (o'zaro muloqot) nutqida ta'sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo'lishi.

v) Diktant yozish malakasi bo'yicha:

Boshlang'ich sinf o'quvchisi 75-85 so'zdan iborat diktant yoza olishi lozim. Buning uchun quyidagi talablar belgilangan:

- imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik;
- ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;
- berilgan izohlarning aniqligi va h.k.

Mazkur keltirilgan misoldan ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini o'quv fanlari

kesimida oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish taqozo etiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining ijrosini ta'minlovchi asosiy shaxs hisoblanadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, milliy ta'lim tizimimizning halqaro baholash ta'lim dasturlariga moslashtirish jarayonida uning davlat ta'lim standartlari va malaka talablari takomillashtirilib borilmoqda. Shu sababli mazkur hujjatlarni o'zlashtirish uchun "Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi"da e'lon qilib boriladigan eng so'nggi variantga asoslanish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari va malaka talablari oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quv fanlari vositasida o'zlashtiriladi. Ayni paytda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim asosida ushbu hujjatlarni o'zlashtirishi tavsiya etiladi. Chunki bu hujjatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi talab darajasida bo'lishi uchun asos hisoblanadi. Shuningdek, bizningcha ularni "Boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish" o'quv fanini chuqurlashtirib o'qitilgan shaklda o'zlashtirish yanada kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limda hujjatlar shakllari. Hozirgi zamon mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida bir qator me'yoriy hujjatlar shakllari amal qilmoqda. Bunday hujjatlarning asosiy shakllari quyidagilardan iborat ekanligini eslatib o'tish joiz:

- a) “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun;
- b) Milliy malakalar ramkasi;
- v) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ta’limga oid Farmonlari, Qarorlari hamda Farmoyishlari;
- g) boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standartlari va malaka talablari;
- d) boshlang‘ich ta’limning o‘quv rejalari va dasturlari.

Ushbu asosiy hujjatlar oliy pedagogik ta’lim jarayonida izchil ravishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi kerak. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limning quyidagi qo‘shimcha hujjatlari ham mavjud:

- a) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari;
- b) boshlang‘ich ta’limda yuritiladigan jurnallar va o‘qituvchilarning elektron kundaliklari;
- v) maktab Pedagogik kengashi tomonidan qabul qilingan hujjatlar;
- g) ota-onalar majlisining bayonnomalari.

E’tibor berilsa boshlang‘ich ta’limning hujjatlari shakllarini chuqur o‘zlashtirish muhim hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’limni amalga oshirish jarayonida aynan ana shu hujjatlar qonuniylikni ta’minlaydi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari imkon qadar an shun hujjatlar shakllarining

mazmunini o‘zlashtirishi va hujjatlar yuritish ko‘nikmasini egallashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta‘lim hujjatlarini muntazam ravishda rasmiy nashrlar orqali kuzatib borish kutilgan samarani beradi. Bundan tashqari, bunday hujjatlarni o‘zlashtirishda ularga berilgan sharhlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompayetensiyasi eng avvalo boshlang‘ich ta‘limga oid hujjatlarni bilishi va shu hujjatlar asosida faoliyat yuritish ko‘nikmasiga egaligi bilan belgilanadi. Mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta‘kidlaganidek, “ta‘limda huquqiylikka tayanish nafaqat ta‘lim sifatining, balki ta‘lim beruvchining mahorati negizini tashkil etadi”.

Shunday qilib boshlang‘ich ta‘limning tashkiliy hujjatlari o‘zigav xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni o‘zlashtirmasdan kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish qiyin. Oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mazkur hujjatlarni chuqur o‘zlashtirishi tavsiya etiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va uning mazmuni nimalardan iborat?

2. Boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standartlari va malaka talablari deganda nimalarni tushunasiz?

3. Boshlang‘ich ta‘lim hujjatlar shakllarini qanday hujjatlar tashkil etadi?

Mustaqil ta‘lim topshiriqlari:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasini o‘zlashtiring va konspekt qiling.

3-mavzu: Boshlang‘ich ta‘limning xalqaro ta‘lim hujjatlari

Reja:

1. TIMSS xalqaro ta‘lim dasturida boshlang‘ich ta‘lim masalalari.

2. STEAM xalqaro ta‘lim dasturida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlari.

3. TALIS xalqaro dasturida boshlang‘ich ta‘lim qoidalari.

Tayanch tushunchalar:

TIMSS, STEAM, TALIS, xalqaro, dastur, ta‘lim, qoida, masala, yo‘nalish, bilim, ko‘nikma, malaka.

TIMSS xalqaro ta‘lim dasturida boshlang‘ich ta‘lim masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘i bilan tayyorlanib tasdiqlangan Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8

dekabrdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorida mamlakatimizning quyidagi xalqaro buholash dasturlarida ishtirok etishi ilk bor belgilandi:

1) *PIRLS* (Progress in international Reading and literacy study) – boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini baholash dasturi;

2) *TIMSS* (Trends in international mathematics and science study) - 4 va 8-sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlarni o’zlashtirish darajasini baholash dasturi;

3) *PISA* (The programme for international student assessment) – 15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash dasturi;

4) *TALIS* (The teaching and learning international survey) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitish va ta’lim olish muhitini hamda o’qituvchilarning ish sharoitlarini o’rganish dasturi.

Shundan keyin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori bilan mazkur xalqaro baholash dasturlari tarkibiga STEAM xalqaro baholash dasturi ham kiritildi.

Mazkur xalqaro baholash dasturlaridan TIMSS va STEAM bevosita boshlang'ich sinf o'quvchilariga yo'naltirilganligi uchun bu o'rinda ularning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

TIMSS xalqaro baholash dasturi 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha o'zlashtirgan savodxonlik darajasini har 4 yilda 1995 yildan buyon dunyo miqyosida maxsus tadqiqot asosida baholab kelmoqda. Mazkur tadqiqot Ta'lim yutuqlarini baholash halqaro assosiasiyasi tomonidan o'tkaziladi, birinchi bosqich 4-sinfda o'tkazilib, to'rt yildan keyin 8-sinfda amalga oshiriladi. Bunda to'rt yil ichida o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha o'zlashtirish darajasining tadrijiy rivoji o'rganiladi.

Ushbu xalqaro baholash dasturida quyidagilarga e'tibor beriladi:

a) o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasi;

b) o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha o'zlashtirishini milliy ta'lim va halqaro ta'lim tajribalari asosida qiyosiy aniqlash;

v) ushbu yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish bo'yicha yutuqlarini aniqlash va kamchiliklarini belgilash;

g) tadqiqot natijasida shu yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

E'tibor berilsa, mazkur xalqaro baholash dasturi asosidagi tadqiqot 4-sinf o'quvchilarining amaldagi ushbu fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlaydi va baholaydi:

- 1) Matematika o'quv fani bo'yicha;
- 2) Tabiiy fanlar (Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik) bo'yicha;
- 3) mazkur yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy foydalanishi va berilgan topshiriqlarni erkin bajarishi ko'nikmalarini aniqlash hamda baholash.

Ushbu xalqaro baholash dasturi bo'yicha tadqiqotlarning eng oxirigisi 2019 yilda o'tkazilgan va navbatdagisi 2023 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. 2023 yilda o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlarda ilk bor mamlakatimiz ham ishtirok etishi mo'ljallangan. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari TIMSS xalqaro baholash dasturi bo'yicha ko'nikmani egallashi taqozo etiladi. Xalqaro baholash dasturi asosida maxsus ijodiy Savolnoma tuzilib, uni test shaklida o'tkazish amalga oshiriladi. Shu sababli ushbu xalqaro tadqiqot dasturining usullariga quyidagilar kiradi:

- o'tkazilgan ijodiy test natijalarini o'rganish;
- so'rovnomalar asosida o'quvchilarning aniqlangan ijodiy va o'zlashtirish layoqatlarini baholash;
- xalqaro tadqiqotni shaffof va ochiq tarzda o'tkazish.

E'tibor berilsa, bu xalqaro baholash dasturi boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matematik layoqatini rivojlantirish va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Bundan asosiy maqsad innovasion rivojlanish sharoitida boshlang'ich sinf

o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha kuchli bilim hamda ko'nikmaga ega qilishdan iborat. Chunki hozirgi zamon texnologiyalari aynan matematika va tabiiy fanlarning uyg'unligiga asosan ishlab chiqilmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidan qat'iy nazar TIMSS halqaro baholash dasturida ishtirok etayotgan davlatlarning ta'lim sifati bo'yicha munosib o'rin egallashi kuzatiladi. Misol uchun, so'nggi bor 2019 yilda o'tkazilgan xalqaro tadqiqotda Matematika o'quv fani bo'yicha Singapur, Gongkon, Janubiy Koreya va Tayvand mamlakatlarining 4-sinf o'quvchilari eng yuqori o'rinni egallagan. Shu ma'noda mamlakatimiz ta'lim tizimidagi hozirgi rivojlanish jarayoni, ta'lim imkoniyatlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorga ega ekanligi 2023 yilda o'tkaziladigan navbatdagi xalqaro tadqiqotda munosib o'rin egallash imkoniyatlarini beradi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va amaliyotchi o'qituvchilar ushbu xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilar bilan ishlashning innovasion metodlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayon hozirgi oliy pedagogik ta'limda boshlanishini eslatib o'tish joiz.

STEAM xalqaro ta'lim dasturida boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari. Mazkur xalqaro baholash ta'lim dasturining nomlanishi quyidagicha: STEAM bu – S-science, T-technology, E-engineering, A- art va M-mathematics, ya'ni aniq fanlar,

texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlari bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi va ko'nikmasi ko'rsatkichini baholash dasturidir. Amaldagi boshlang'ich ta'limimizning quyidagi o'quv fanlari STEAM xalqaro baholash dasturining ob'yekti sifatida namoyon bo'ladi:

- 1) Matematika o'quv fani;
- 2) Texnologiya (muhandislik asoslariga ega) o'quv fani;
- 3) Musiqa madaniyati, Tasviriy san'at hamda Ona tili va o'qish savodxonligi o'quv fani;
- 4) Tabiiy fanlar (Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik) o'quv fani.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaldagi ana shu o'quv fanlariga STEAM xalqaro baholash dasturi qoidalarini va talablarini joriy etish, uning tadqiqotida faol ishtirok qilish ko'nikmasini egallashi kerak. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturi"da amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini STEAM xalqaro baholash dasturi asoslari bilan 2022-2025 yillarda o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda, bunda 2025 yilga borib amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning 50 foizi ana shu xalqaro baholash dasturi bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma hamda malakaga ega bo'lishi kerak. Aynan mana shu vazifa oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf

o'qituvchilarining STEAM xalqaro baholash dasturi asoslarini chuqur o'zlashtirish vazifasini qo'yadi.

STEAM xalqaro baholash dasturi Amerika Qo'shma Shtatlarining Massachusetts texnologiya institutida 2011 yilda ishlab chiqilgan va amalga kiritilgan. Ushbu xalqaro baholash tadqiqotlari har 8 yilda bir marotaba o'tkaziladi va oxirgi marotaba 2014 yilda Isroil davlatining Quddus shahrida o'tkazilgan. 2022 yilda navbatdagi xalqaro tadqiqot o'tkazilishi belgilangan edi, biroq COVID-19 pandemiyasi sababli uni o'tkazish muddati noaniq vaqtga surilgan. Bugungi kunda mana shu navbatdagi xalqaro tadqiqotda qatnashish uchun dunyo mamlakatlarining tayyorgarligi amalga oshirilmoqda.

STEAM xalqaro baholash dasturi tadqiqotida quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- a) o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha yetuk bilimga egaligi;
- b) o'quvchilarning texnologiyalarni o'zlashtirish ko'nikmasiga egaligi;
- v) o'quvchilarning muhandislik-ixtirochilik uquviga egaligi;
- g) o'quvchilarning san'atni tushunishi va ijodiy layoqatga egaligi;
- d) o'quvchilarning matematik savodxonligini yuqori darajaga ega ekanligi.

Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilarda ana shu asoslar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish

asoslari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, ushbu xalqaro baholash dasturlari oliy pedagogik ta'lim jarayonida bir necha yangiliklarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra bunday yangiliklarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1) majburiy (mutaxassislik) va tanlov fanlari TIMSS va STEAM xalqaro baholash dasturlarini o'rganish mavzular bilan boyitilishi;

2) mustaqil ta'lim va maxsus kurslar tashkil qilib, ular vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlari bilan qurollantirish;

3) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga jalb etish.

Bunday yondashuv va ularni amalga oshirish oliy pedagogik ta'lim jarayonida professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarimiz milliy pedagogikamiz asoslari bo'yicha yetarli darajada bilimga ega, endi navbat ularni xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash malakalarini shakllantirishgadir. Shu sababli mazkur masala bo'yicha ustozlarning va mutaxassislarning hamkorligini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

TALIS xalqaro dasturida boshlang'ich ta'lim qoidalarini. 2001 yilda Jahon Iqtisodiy Hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan TALIS halqaro baholash ta'lim dasturi ishlab chiqilib, mamlakatlar kelishuviga taqdim etildi. TALIS – (Teaching and Learning International Survey), ya'ni o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini baholash halqaro dasturi har 6 yilda bir marotaba o'tkaziladi. So'nggi marotaba tadqiqot shaklidagi mazkur dastur 2008 yilda o'tkazilgan bo'lib, unda jahon mamlakatlaridan 48 tasi ishtirok etgan. Bu dastur o'ziga xos tadqiqot shakli bo'lib, unda quyidagilar o'rganiladi va baholanadi:

- 1) o'qituvchilar faoliyati;
- 2) o'qituvchilarning ish sharoiti;
- 3) maktabdagi ta'lim muhiti.⁶

E'tibor berilsa, mazkur halqaro baholash ta'lim dasturi – tadqiqotining dastlabki talabi *o'qituvchilar faoliyatini* o'rganishdir. Bunda o'qituvchilar faoliyati deganda quyidagilar o'rganilishini ta'kidlab o'tish lozim:

- a) o'qituvchining kasbiy bilim va ko'nikma darajasi;
- b) o'qituvchining ta'lim va tarbiya berish mahorati;
- v) o'qituvchining kasbiy faolligi.

Shu sababli mazkur talablar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nisbatan tayyorgarlikka ega bo'lishi taqozo etiladi. Mazkur dasturning dastlabki talabi o'qituvchining *kasbiy*

⁶TALIS xalqaro baholash ta'lim dasturi. // www.google.uz

bilim va ko'nikma darajasini o'rganishdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy bilim, ko'nikma va ta'lim-tarbiya berish mahorati kutilgan darajada shakllangan, ayni paytda, ularning kasbiy faolligi bo'yicha murakkabliklarga uchrashi ko'zga tashlanadi. Shu sababli haftalik amaliyot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faollik ko'nikmasini chuqur egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda kasbiy faollik deganda o'zining layoqatlarini qulay va maqbul uslubda namoyon qilishi tushunilishi kerak. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faollik ko'nikmalarini egallashi ularning mustaqil xatti-harakatlariga bog'liqdir.

TALIS halqaro baholash ta'lim dasturining ikkinchi talabi bu o'qituvchining *ish sharoitini* o'rganishdir. Unga ko'ra, o'qituvchi faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasining moddiy-texnik imkoniyatlari, jihozlanish darajasi, o'qituvchi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, zamonaviy axborot-resurs markazining mavjudligi kabilar o'rganiladi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablari, jumladan, boshlang'ich sinf o'quv xonalari mazkur nuqtai nazardan zamonavi darajada takomillashtirilib borilmoqda. Misol uchun, keyingi yillarda o'qituvchining ish sharoiti uchun muhim hisoblangan mehnatga haq to'lash tizimi takomillashtirilib, O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlanish Strategiyasiga binoan

“mehnatga munosib haq to‘lash” vazifasi belgilangan va 2026 yilga borib o‘qituvchilarning oylik maoshi o‘rtacha ming AQSH dollari ekvaliyentini tashkil etishi kerak. Yoki, mamlakatimiz umumiy o‘rta ta‘lim maktablari zamonaviy darajadagi axborot-resurs markazlariga ega. Eslatib o‘tish joizki, 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim maktablari darsliklaridan bepul foydalanish tizimi joriy etildi. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ish sharoitini bugungi kun talablari asosida ta‘minlashni nazarda tutadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mehnat ta‘tili davrida yoki zaruriy hollarda davolanish va profilaktik-dam olish masalalarini hal etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. E‘tibor berilsa, mamlakatimizning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qituvchilar, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun munosib ish sharoiti yaratish jarayoni amalga oshirilmoqda.

TALIS xalqaro baholash ta‘lim dasturining uchinchi o‘rganish ob‘yekti – bu *maktabdagi ta‘lim muhitini* o‘rganishdir. Bu o‘rinda “ta‘lim muhiti” deganda umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi ta‘lim beruvchilarning ahilligi, ta‘lim va tarbiya oluvchilar bilan hamkorligi, ota-onalar hamda ta‘limdan manfaatdor muassasalar bilan birgalikdagi faoliyati nazarda tutiladi. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarimizda, jumladan, boshlang‘ich sinflarda mazkur jarayon bo‘yicha o‘ziga xos pedagogik, hamkorlik va birgalikda harakat muhiti mavjudligini ta‘kidlash lozim. Buning

natijasida o'quv fanlarini integrasiyalab o'qitish, tarbiyaviy tadbirlarni keng hamkorlikda tashkil etish va ta'lim jarayoniga jamoatchilikni faol jalb etish imkoniyatlariga ega bo'linmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinflardagi ta'lim muhiti bizning yondashuvimizga ko'ra, barcha talablar va mezonlarga javob beradi.

E'tibor berilsa, TALIS xalqaro baholash ta'lim dasturi – tadqiqoti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi o'qituvchilar uchun munosib shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Mazkur dasturning navbatdagi tadqiqoti 2024 yilda o'tkaziladi va unda mamlakatimiz ham ishtirok etish taklifini bildirgan. O'tkaziladigan navbatdagi o'rganishda jahon bo'yicha 200 ta ta'lim muassasasi, 4000 nafar o'qituvchi va 200 nafar maktab direktori qatnashishi ko'zda tutilgan. Mamlakatimizning mazkur tadqiqot jarayonida faol ishtirok etishi mo'ljallanmoqda. Buning uchun mamlakatimizda metodik, moliyaviy va amaliy imkoniyatlar yetarli hamda o'qituvchilarning kasbiy yetukligi ham talablarga javob beradi.

Shunday qilib TIMSS, STEAM va TALIS xalqaro baholash ta'lim dasturlari hamda tadqiqotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular jahon mamlakatlari ta'lim tizimini bugungi talablar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur dasturlarni chuqur o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

TIMSS xalqaro ta'lim dasturida boshlang'ich ta'lim masalalari bo'yicha qanday qoidalar belgilangan?

1. STEAM xalqaro ta'lim dasturida boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari nimalardan iborat?

2. TALIS xalqaro dasturida boshlang'ich ta'lim va o'qituvchilar uchun qanday qoidalar belgilangan?

Mustahkamlash uchun topshiriq:

TIMSS, STEAM va TALIS xalqaro baholash ta'lim dasturlari mazmunini o'zlashtiring va konspekt qiling

4-mavzu: Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini o'rganish tizimi

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini oliy pedagogika ta'lim jarayonida o'rganish

2. Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini mustaqil ta'lim vositasida o'rganish

3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini maxsus kurslar asosida o'rganish

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, me'yoriy, hujjat, o'quv fanlari, maxsus kurs, o'rganish, o'zlashtirish, ko'nikma.

Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini oliy pedagogika ta'lim jarayonida o'rganish. Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quv fanlarini takomillashtirish, dasturlarni halqaro baholash ta'lim dasturlariga moslashtirish va mavzularni integrasiyalash jarayoni kechmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi PQ-289 son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida oliy pedagogik ta'lim muassasalari o'quv fanlarini mustaqil takomillashtirishi hamda Ta'limni xalqaro standart klassifikatori (MSKO-2011) talablariga mos ravishda mavzularni belgilash vazifasi qo'yilgan. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim muassasasining Boshlang'ich ta'lim yo'nalish o'quv fanlarini yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish va ularni yangi mavzular bilan boyitib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning natijasida pedagogik ta'lim jarayonida me'yoriy hujjatlarni o'rganish ko'lami kengayadi. Shu sababli "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiyasi", "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi", "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi", "ART

texnologiya va kreativlik” hamda mazkur “Boshlang‘ich ta’limda me’yoriy hujjatlarni yuritish” kabi o‘quv fanlarida boshlang‘ich ta’limga oid me’yoriy hujjatlarni o‘rganish bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, bu borada quyidagicha yondashish samarali hisoblanadi:

- a) boshlang‘ich ta’limga oid qonuniy hujjatlarni o‘rganish;
- b) boshlang‘ich ta’limga oid me’yoriy hujjatlarni o‘rganish;
- v) boshlang‘ich ta’limga oid xalqaro baholash ta’lim dasturlarini o‘rganish.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limga oid qonun hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Innovasion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlari, Mehnat, Ma’muriy va Soliq Kodekslari tashkil etadi. Misol uchun, Mehnat Kodeksida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mehnat faoliyati asoslari, ularning staj ko‘rsatkichlari, pensiyaga oid huquqlari kabilar tartibga solingan, Ma’muriy Kodeksda esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’muriy huquqlari, boshlang‘ich ta’limni boshqarish asoslari kabi masalalar belgilab qo‘yilgan. Shu sababli mazkur qonuniy hujjatlarni oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limga oid me’yoriy hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta’lim standartlari va

malaka talablari, o'quv rejalari hamda dasturlari tashkil qiladi. Mazkur hujjatlarni majburiy (mutaxassislik) o'quv fanlarida o'qitish nazarda tutilgan. Ayni paytda, mamlakatimiz milliy ta'lim tizimining xalqaro baholash ta'lim dasturlariga moslashtirish jarayoni kechayotganligi sababli ushbu hujjatlarda o'zgarishlar va yangiliklar amalga oshirilib borilmoqda. Shu sababli har bir kursda mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida mazkur me'yoriy hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar va yangiliklar to'g'risida kasbiy bilim va ko'nikma berib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun o'quv fanlari professor-o'qituvchilari muntazam ravishda boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni kuzatib borishi taqozo etiladi.

Yuqorida ta'kidlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-289 sonli Qarorida PISA, TIMSS, PIRLS va TALISS xalqaro baholash dasturlarini o'rganish hamda mavjud milliy dasturlarni ularga moslashtirish vazifasi belgilangan. Shu jihatdan ushbu xalqaro baholash ta'lim dasturlaridagi boshlang'ich ta'limga oid qoidalar va talablar oliy pedagogik ta'lim jarayonida majburiy (mutaxassislik) hamda tanlov fanlari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'rgatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki kelgusida boshlang'ich ta'lim dasturlari ana shu xalqaro baholash ta'lim dasturlariga mos ravishda amalga kiritiladi va bu jarayonni 2026 yilda yakunlash nazarda tutilgan. Mazkur xol bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak

boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich ta'limga oid xalqaro baholash ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish hamda ularning bu boradagi ko'nikmasini tarkib toptirishni taqozo etadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida ana shu uch yo'nalishda o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini mustaqil ta'lim vositasida o'rganish. Mustaqil ta'lim- bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muntazam va izchil ravishda kasbiy bilimlar hamda ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish jarayonidir. Mustaqil ta'limning muddati yoki vaqti belgilanmaydi. Ayni vaqtda, mustaqil ta'limning ikki shakli mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim:

- 1) mustaqil ta'limning oflayn shakli;
- 2) mustaqil ta'limning onlayn shakli.

Mustaqil ta'limning oflayn shaklida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bevosita professor-o'qituvchilar ishtirokida kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'qish jarayonida o'zlashtiradi. Shu jihatdan ta'limning mazkur shaklida boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni professor-o'qituvchilar yordamida o'rganish samarali hisoblanadi. Chunki bu borada professor-o'qituvchilar tushuntirish va yo'naltirish vazifasini bajaradi. Mustaqil ta'limning onlayn shaklida bevosita axborot-kommunikasion vositalar yordamida kasbiy bilim va ko'nikmalar o'rganiladi. Mazkur shakl vositasida

boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni o'rganish juda samarali hisoblanadi. Chunki axborot-kommunikasion vositalarda boshlag'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarning izohlari, sharhlari hamda ularga oid tushuntirishlar mavjud bo'ladi. Shuningdek, tegishli o'quv adabiyotlarining yangi elektron variantlari me'yoriy hujjatlarni kutilgan darajada o'zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli biz mustaqil ta'limning onlayn shaklida boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirish nisbatan samarali hisoblanadi, - degan fikrdamiz. Bu borada me'yoriy hujjatlarni modellashtirish va ularga turli tasviriy ishlanmalar yaratish imkoniyatlari ham mavjudligini eslatib o'tish joiz.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini mustaqil ta'lim vositasida o'rganish juda samarali hisoblanadi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil faoliyati, mustaqil izlanishi va mustaqil fikrlashi tarkib topishi muhim ahamiyatga ega. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, mustaqil ta'lim vositasida me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirish ularni maxsus o'qitishga nisbatan keng imkoniyatlarga ega.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini maxsus kurslar asosida o'rganish. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga nisbatan bir qator kasbiy talablar qo'yilmoqda. Bunday talablardan biri innovasion jamiyat talablariga mos faoliyat ko'rsatishdir. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga me'yoriy hujjatlarni maxsus kurslar vositasida o'rgatish ham muhim

hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, ko'pchilik maxsus kurs deganda butun o'quv yili davomida amal qiladigan maxsus o'quvlarni tushunadi. Aslida maxsus kurs biror mavzu bo'yicha muddatli o'quv jarayonidir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limga oidl me'yoriy hujjatlarni bir yoki ikki oylik maxsus kurslar vositasida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan bunday kurslar talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga xizmat qilganligi uchun maxsus kurs deb ataladi. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini maxsus kurslar vositasida o'qitishda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- a) huquqshunos mutaxassislarni taklif qilish imkoniyati;
- b) bevosita boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bilan xodimlarni taklif qilish imkoniyati;
- v) me'yoriy hujjatlarni guruh bo'lib amaliy o'zlashtirish imkoniyati.

Bunday imkoniyatlardan foydalangan holda boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini o'rganish amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Maxsus kurslarni tashkil etishda talabalarning bo'sh vaqtlari va ularning takliflariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman maxsus kurslar me'yoriy hujjatlarni o'rganishning muhim tizimi sifatida pedagogik tajribada e'tirof etilgan.

Shundas qilib boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini o'rganish tizimi o'ziga xos bo'lib, unga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tizimda me'yoriy hujjatlarni pedagogik ta'lim

jarayonida, mustaqil ta'lim vositasida va maxsus kurslar asosida o'rganish muhim o'rin tutadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini oliy pedagogika ta'lim jarayonida o'rganish qanday amalga oshiriladi?
2. Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini mustaqil ta'lim vositasida o'rganishda nimalarga asoslanish kerak?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini maxsus kurslar asosida o'rganish deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'limning xalqaro baholash ta'lim dasturlaridagi qoidalarini o'rganish bo'yicha ishlanma tayyorlang.

**5-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining
pedagogik faoliyatdagi ahamiyati**

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlarni bilishi.
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlardan foydalanish ko'nikmasi.

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchining ta'lim hujjatlarini amaliyotga tadbiq etish faoliyati.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, hujjat, boshlang'ich, pedagogika, faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlarni bilishi. Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'lim jarayonida me'yoriy hujjatlarni o'rganish, o'zlashtirish va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmasini egallash bo'yicha o'quv fanlarida mavzular nazarda tutilgan. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni bilishi zaruriyat hisoblanadi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- a) me'yoriy hujjatlarni birlamchi manbalardan olishni o'rganish;
- b) me'yoriy hujjatlarni ularga berilgan sharhlar orqali o'zlashtirish;
- v) me'yoriy hujjatlar bilan muntazam ishlash ko'nikmasini egallash.

Me'yoriy hujjatlarni birlamchi manbalardan olish muhim hisoblanadi. Bunday manbalarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Axborotnomasi;

2) Qonun hujjatlari milliy bazasi (elektron platforma);

3) qonunlarning rasmiy kitob shaklidagi nashrlari.

Ushbu birlamchi manbalarda boshlang‘ich ta’limga oid me’yoriy hujjatlar asl variant sifatida taqdim qilinadi.

Boshlang‘ich ta’limga oid me’yoriy hujjatlarni sharhlar vositasida o‘rganish samarali hisoblanadi. Chunki sharhlarda har bir moddaning mazmuni, ularni qanday qo‘llash metodikasi va boshqa qonunlardagi qiyosiy moddalar bilan solishtirish tushuntirishlari beriladi. Shu sababli bunday sharhlarni quyidagi asosiy manbalardan olish tavsiya etiladi.

1) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Byulleteni;

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligining “Xalq ta’limi” jurnali va “Ma’rifat” gazetasi;

3) qonunlarga berilgan maxsus sharhlarning kitob shakli.

Ushbu asosiy manbalarda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rahbarligida mutaxassislarning amalga oshirgan sharhlari e’lon qilinadi. Boshlang‘ich ta’limga oid me’yoriy hujjatlarni ana shu manbalar asosida o‘rganish qulay va oson imkoniyatlarni beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’limga oid me’yoriy hujjatlar bilan muntazam ravishda ishlab borishi

taqozo etiladi. Chunki me'yoriy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartirishlardan xabardor bo'lish ularni o'zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Buning uchun yuqorida ta'kidlangan birlamchi va asosiy manbalarga murojaat qilish tavsiya etiladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, hukumat nashrlari bo'lgan "Yangi O'zbekiston" va "Halq so'zi" gazetalarida qonunlar e'lon qilinadi, biroq ularning sharhlari nashr etilmasligini eslatib o'tish joiz. Umuman boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirishda ustozlar maslahatiga amal qilish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlardan foydalanish ko'nikmasi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlardan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish dolzarb masalalardan biridir. Bunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida quyidagilarni amalga oshirish kutilgan samarani beradi:

- a) me'yoriy hujjatlarni o'rgatish;
- b) me'yoriy hujjatlardan foydalanishni o'rgatish;
- v) me'yoriy hujjatlar bo'yicha metodika bilan qurollantirish.

Me'yoriy hujjatlarni bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga o'rgatishda ko'proq ularning mustaqil ishlashiga e'tibor berish kutilgan samrani beradi. Boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarning mazmuni, ularda belgilangan huquqlar va majburiyatlarni o'zlashtirish tavsiya etiladi. Ko'p hollarda me'yoriy

hujjatlarda huquqlar va majburiyatlar teng belgilanadi, ayni paytda, me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Agar me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar aniq va to'liq o'zlashtirilsa, kasbiy faoliyatda huquqiylik va majburiyatlik tarkib topadi. Shu sababli me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'liq o'zlashtirish tavsiya qilinadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga me'yoriy hujjatlardan foydalanishni o'rgatish ham muhim masalalardan biridir. Buning uchun me'yoriy hujjatlarni birlamchi manbalardan olishni bilish, ularni sharhlari bilan tanishish va ularda belgilangan huquqlarni o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir me'yoriy hujjatning nomlanishiga e'tibor berish kerak, chunki aynan ularning nomida me'yoriy hujjatlarning mazmuni aks etgan bo'ladi. Bundan tashqari, me'yoriy hujjatlarni o'rganishda konspekt qilib borish pedagogik tajribadan o'tgan eng muhim shakllardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlar bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini maxsus metodika bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'limga oid har bir me'yoriy hujjatni o'qib tushunish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda talabalarning me'yoriy hujjatlarni yodlashga intilishi mavjud. Biroq, me'yoriy hujjatlarni yodlash ularning mazmunidan chalg'itishini eslatib o'tish joiz. Shu

sababli ularni o'qib tushunish metodikasiga amal qilish samarali hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlardan foydalanish ko'nikmasini ega bo'lish uchun mustaqil xarakat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mustaqil xarakat natijasida boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlar erkin o'zlashtiriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining ta'lim hujjatlarini amaliyotga tadbqiq etish faoliyati. Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlarni amalda qo'llay olish faoliyati bilan qurollantirish dolzarb bo'lib turibdi. Negaki, talabalar ko'p hollarda me'yoriy hujjatlarni yaxshi o'zlashtirishadi, biroq ulardan amaliy faoliyatda foydalanishda murakkablikka duch kelishadi. Shu sababli bu borada quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) o'zlashtirilgan me'yoriy hujjatlarni amalda qo'llashni haftalik amaliyot davrida o'rganish;

b) me'yoriy hujjatlardan foydalanish bo'yicha kitoblar bilan tanishish;

v) me'yoriy hujjatlar bo'yicha ustozlar bilan hamkorlik qilish.

Bularga amal qilish boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlardan amalda qo'llash ko'nikmasi bilan qurollantiradi. Misol uchun, muayyan o'quv fani davlat ta'lim standartlarini o'zlashtirgandan keyin ulardan foydalanishni haftalik amaliyot

davrida tajribadan o'tkazish imkoniyati mavjud. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, me'yoriy hujjatlardan foydalanish yillar davomida o'qituvchining kasbiy tajribasining shakllanishiga olib keladi. Olmon faylasufi G.Gegel ta'kidlaganidek, "huquqni bilish – bu erkinlikka erishishdir". Shu jihatdan boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni aniq bilish va ulardan foydalanish ko'nikmasini izchil egallab borish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi. Chunki me'yoriy hujjatlarni bilish o'qituvchiga kasbiy erkinlikni taqdim qiladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining pedagogik faoliyatdagi ahamiyati yuqoridir. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan ularni bilish, ulardan foydalanish ko'nikmasini egallash va me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatishni o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlarni bilishi qanday ahamiyatga ega?
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlardan foydalanish ko'nikmasini nimalar tashkil etadi?
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchining ta'lim hujjatlarini amaliyotga tadbiq etish faoliyati qanday o'zlashtiriladi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining pedagogik faoliyatdagi ahamiyati bo'yicha tasvirli ishlanma tayyorlang.

Mazkur 1-modulda boshlang'ich ta'limning asosiy me'yoriy hujjatlari masalasi bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va metodik tavsiyalar taqdim etildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari me'yoriy hujjatlarni mustaqil ta'lim vositasida chuqurlashtirilgan tarzda o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Qonun hujjatlari milliy bazasi. // www.google.uz
2. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021
3. Karimjonov A., Jabborova O. va boshq. Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari. – Toshkent, 2021
4. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiyasi. – Toshkent, 2021

2-MODUL. “Boshlang‘ich ta‘limning me‘yoriy hujjatlarini yuritish metodikasi”

6-mavzu: Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini tizimlashtirish

Reja:

1. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini qoidalarga binoan tartiblash.
2. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish muddatlarini shakllantirish.
3. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish asoslarini belgilash.

Tayanch tushunchalar:

Ta‘lim, boshlang‘ich, hujjat, ijro, tartiblash, shakllantirish, belgilash, bilim, ko‘nikma.

Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini qoidalarga binoan tartiblash. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan bir qator me‘yoriy hujjatlarda me‘yoriy hujjatlarni tartiblash qoidalari belgilangan. Unga ko‘ra, hujjatlarning muhimligi va ijro muddatiga asosan bosqichma-

bosqich shaklda tartibga solinadi. Misol uchun, 1-bosqich hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- a) qonunlar va kodekslar;
- b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari;
- v) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari;
- g) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari.

Mazkur 1-bosqich hujjatlari ijro uchun birinchilardan bo‘lib qabul qilinadi.

Me‘yoriy hujjatlarning 2-bosqichiga quyidagilar kiradi:

- a) vazirliklar va davlat qo‘mitalarini buyruqlari hamda ular Hay’ati qarorlari;
- b) bevosita sohalarga oid davlat boshqaruv organlarining qarorlari;
- v) ta’limni boshqaruvchi davlat organlari hujjatlari;
- g) shartnomalar, kontraktlar va kelishuvlar.

Ushbu tartibga ko‘ra bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’limga oid me‘yoriy hujjatlarni tartiblash ko‘nikmasini egallashi lozim. Kezi kelganda ba’zi bir tushunchalarni eslatib o‘tish joiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni davlat boshqaruvining eng muhim birlamchi hujjati hisoblanadi, undan keyin Qaror turadi. Prezidentning yoki

davlat boshqaruv organlarining Farmoyishida bir masalani tezkor hal etish vazifalari belgilanadi. Farmonda muayyan muammoning yechimi, vazifalari va me'yoriy hujjatlarga kiritiladigan o'zgartirishlar keng ko'lamda beriladi. Qarorda esa muayyan sohalarning muammolarini yechish va rivojlantirish masalalari belgilanadi, uning ijro muddati ko'rsatiladi. Ayni paytda, har bir Farmon, Qaror va Farmoyishning ijrosini ta'minlovchi mas'ul shaxs yoki tashkilot belgilanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, barcha me'yoriy hujjatlar o'z vaqtida ijro etilishi qonuniy talab hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim me'riy hujjatlarini yuritish muddatlarini shakllantirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan Reglamentga ko'ra, me'yoriy hujjatlarni yuritishda ularning dolzarbligi hamda qo'yilgan vazifalarning muhimligidan kelib chiqib ijro muddati shakllantiriladi. Ijro muddatini shakllantirishda shartli ravishda quyidagi quyidagi ranglarda siporishlar ("ptichka") belgilangan:

a) qizil rangli siporish – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijrosini ta'minlash ko'rsatmasi;

b) ko'k rangli siporish – vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning me'yoriy hujjatlari ijrosini ta'minlash ko'rsatmasi;

v) yashil rangli siporish – mahalliy davlat boshqaruv organlari (hokimliklar), ta'limni boshqaruvchi hududiy organlar va boshqa idoralar hujjatlari ijrosini ta'minlash ko'rsatmasi.

Ta'kidlash lozimki, hujjatlarning ijro muddati va tezkorlik hususiyati ularda belgilangan ana shu siporishlar asosida amalga oshiriladi. Bu borada keyingi yillarda Internet imkoniyatlaridan foydalangan holda me'yoriy hujjatlarni taqdim etish tajribasi to'plandi va ulardagi ana shu siporishlarga e'tibor berish ijrosini ta'minlash uchun ko'rsatma vazifasini bajaradi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari me'yoriy hujjatlarni qoidalarga binoan tartiblash va ularning ijrosini yuritish muddatlarini belgilash ko'nikmasini egallashi kerak. Shu sababli mazkur "Boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish" kabi o'quv fanlari vositasida ana shunday ko'nikmalarni chuqur egallash taqozo etiladi. Chunki innovasion jamiyat sharoitida barcha sohalar qatorida boshlang'ich ta'lim ham raqamli texnologiya asosida boshqariladi, ya'ni me'yoriy hujjatlar onlayn shaklda taqdim etib boriladi. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'qituvchisi, sinf rahbari yoki maktab jamoasining me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlash muddatlari va ularning tartibi bo'yicha mustaqil xarakter qilishi taqozo etiladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlar bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi ularning kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi. Chunki kelajakda ular bevosita boshlang'ich ta'lim boshqaruvi bilan ham shug'ullanishi ma'lumdir.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish asoslarini belgilash. Hozirgi zamon ta'lim tizimi boshqaruvida me'yoriy

hujjatlar va ularni yuritish asoslaridan xabardorlik muhim masala hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlarni yuritish asoslarini belgilash ko'nikmasiga ega bo'lishi muhimdir. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

a) me'yoriy hujjatlarning mazmunini aniq tushunish va ularning ijro muddatini belgilab olish;

b) me'yoriy hujjatlarning ijrosi bo'yicha hisobotlar taqdim etish muddatini belgilab olish;

v) me'yoriy hujjatlar ijrosida kimlar bilan hamkorlikni qilishni belgilab olish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari eng avvalo me'yoriy hujjatlarning mazmuniga e'tibor berishi kerak. Ularning mazmunida qo'yilgan vazifalar va hisobot shakllari aks etgan bo'ladi. Shundan keyin me'yoriy hujjatlarning ijro muddati belgilab olinadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ijro muddatining aniq belgilanishi yoki muddatidan oldin ijrosini ta'minlash kutilgan samarani beradi. Ko'p hollarda ijro muddatini aniq belgilamaslik natijasida ularning ijrosi bo'yicha murakkablikka duch kelinadi.

Me'yoriy hujjatlarning asosiy masalalaridan biri ularning ijrosi bo'yicha hisobotlar taqdim etishdan iborat. Ta'kidlash lozimki hisobotlar me'yoriy hujjatlarning to'liq ijrosidan keyin taqdim etiladi. Hisobotga qadar esa ehtiyojga qarab ijro yuzasidan Ma'lumotnomalar berib boriladi. Eslatib o'tish joizki, hisobotlarni

tuzishda kirish, asosiy qism va hulosalar tartibiga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kirish qismida me'yoriy hujjatning mazmuni va uning ijrosi bo'yicha qisqacha ma'lumot beriladi, asosiy qismda esa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan raqamli ma'lumotlar taqdim etiladi va hulosalar qismi me'yoriy hujjatning o'z vaqtida ijrosi ta'minlanganligi hamda uning natijasida erishilgan samaralar sanab ko'rsatiladi. Buning natijasida me'yoriy hujjatning ijrosi aniq bajarilgani to'g'risida tasavvur hosil qilinadi. Ta'kidlash lozimki, hisobotlarni tuzishda uzundan uzoq jumladan yoki gaplar ishlatilishi ularning mazmunini ochib bermaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari me'yoriy hujjatlar ijrosida kimlar yoki qaysi muassasalar bilan hamkorlik qilish bo'yicha ham ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Chunki ko'p me'yoriy hujjatlarda bir necha muassasalarning hamkorlik qilishga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Bundan hamkorlikni aniqlab olish uchun me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni chuqur tushunish va ularning ahamiyatiga e'tibor berish tavsiya etiladi. Shu sababli bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil izlanish olib borishlari taqozo etiladi.

Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, hozirgi taraqqiyotimiz me'yoriy hujjatlarni raqamli texnologiyalar asosida yuritishga asoslanmoqda. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari raqamli texnologiyalar asosida me'yoriy hujjatlarni yuritish

ko'nikmasini egallashi zaruriyat hisoblanadi. Misol uchun, bugungi kunda onlayn shaklda taqdim etilgan me'yoriy hujjatlar huquqiy jihatdan asosga ega, shu sababli ularni kompyuter kabi axborot-kommunikasion vositalardan foydalanib ijrosini ta'minlashga o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini tizimlashtirish bu ularni qoidalarga binoan tartiblash, ijro muddatini shakllantirish va yuritish asoslarini belgilab olishdan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mana shunday ko'nikmalarga ega bo'lishi ularning professional pedagog sifatida voyaga yetishi uchun asoslardan biri hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini qoidalarga binoan tartiblash qanday amalga oshiriladi?
2. Boshlang'ich ta'lim me'riy hujjatlarini yuritish muddatlarini shakllantirish qanday asoslarga tayanadi?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish asoslarini belgilashda nimalarga e'tibor berish lozim?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini tartiblash, ijro muddatini shakllantirish va ularni yuritish asoslari belgilash metodikasi o'zlashtiring.

7-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining ijrosini ta'minlash

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini davlat boshqaruv organlari maqomi bo'yicha ijroga qo'yish
2. Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritishning qisqa, tezkor va uzoq muddatlarini belgilash
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari ijrosini nazoratga olish.

Tayanch tushunchalar:

Boshqaruv, hujjat, ijro, boshlang'ich, ta'lim, muddat, o'rganish, o'zlashtirish, ko'nikma.

Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini davlat boshqaruv organlari maqomi bo'yicha ijroga qo'yish. Mamlakatimizning hozirgi taraqqiyoti bosqichida boshlang'ich ta'limni sifatli amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun boshlang'ich ta'lim hujjatlarini oqilona yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, boshlang'ich ta'lim davlat standartlari va malaka talablari kabi me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda davlat boshqaruvi organlari maqomi bo'yicha ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bunda quyidagilarga e'tibor bering:

a) Vazirlar Mahkamasi va Halq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarning ijrosini birlamchi tarzda ta'minlash;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Halq ta'lim vazirligi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimliklarining boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlari ijrosini ta'minlash;

v) tuman va shahar halq ta'limi bo'limlarining me'yoriy hujjatlari ijrosini ta'minlash.

Bunday ketma-ketlikda me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlash davlat boshqaruv organlari maqomiga ko'ra amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limga oid xalqaro Shartnomalar ijrosi ham birlamchi tarzda ta'minlanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bunday ko'nikmani egallash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik ko'lamini kengaytiradi. Ayni paytda, ba'zi me'yoriy hujjatlarning ijrosini tezkor ravishda ta'minlash taqozo etiladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tushlik ovqat bilan ta'minlash kabi me'yoriy hujjatlar davlat boshqaruv organlari maqomidan qat'iy nazar birlamchi tarzda amalga oshiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanitariya-gigiyena yoki o'quvchilar salomatligini ta'minlashga qaratilgan muddatli emlashga doir me'yoriy hujjatlarning ijrosi ham tezkor ravishda amalga oshiriladi.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda davlat boshqaruvi organlari maqomi tartibiga amal qilish bu boradagi faoliyatda ijro intizomining tarkib topishiga olib keladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari me'yoriy hujjatlar bo'yicha ijro intizomi ko'nikmasiga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritishning qisqa, tezkor va uzoq muddatlarini belgilash. Boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlar mazmuni, ularda qo'yilgan vazifalar va ko'rsatmalar xususiyatlariga asosan mazkur hujjatlarning ijrosini ta'minlashda aniq muddatlarni belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda me'yoriy hujjatlarni yuritishning quyidagi muddatlari amal qilmoqda:

- a) qisqa muddatli;
- b) tezkor muddatli;
- v) uzoq muddatli.

Boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni yuritishda qisqa muddat kamida 1 oydan iborat bo'ladi. Bunda hujjatda belgilangan vazifalar xususiyatidan kelib chiqiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarning tezkor muddati 3 kundan iborat bo'ladi va bunda ijro uchun taqdim etilgan me'yoriy hujjatda bir yoki ikki masalaning yechimini hal qilish nazarda tutilgan bo'ladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'liqni saqlashga oid hujjatlar ko'p hollarda qisqa muddatli va biro muammoni hal

etishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar esa tezkor muddatga ega bo'ladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni yuritishda uzoq muddatli shakl ham amal qiladi. Ko'p hollarda bunday muddat butun o'quv yili davomi asosida belgilanadi. Bunday hujjatlarda ko'p hollarda o'quv rejasi yoki dasturlariga kiritilgan yangiliklar belgilangan bo'ladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni yuritishning qisqa, tezkor va uzoq muddatlari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, "Qonun hujjatlari milliy bazasi" (portali) vositasida Ish yuritish tartibi reglamentlari bilan tanishib borish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tavsiya etiladi. Bundan tashqari pedagog olimlarimiz tomonidan maktabni boshqarish masalalari bo'yicha ham ilmiy-metodik kitoblar e'lon qilingan va ular bilan ham tanishish samarali hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari ijrosini nazoratga olish. Davlat boshqaruvi tajribasi va pedagogik an'analar shuni ko'rsatadiki, me'yoriy hujjatlarning ijrosini kutilgan darajada ta'minlash uchun ularni nazoratga olish ko'nikmasidan xabardor bo'lish lozim. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlar ijrosini nazoratga olishda quyidagilarga amal qilish muhim masalalardan hisoblanadi:

- a) hujjatning ijrosi belgilangan muddatga qat'iy amal qilish;
- b) hujjatning ijrosi bo'yicha tegishli ma'lumotlar berib borish;

v) ijro nazoratini mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshirish.

Boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarning ijrosini nazoratga olishda ularning ijro muddatiga qat'iy amal qilish ijro intizomining dastlabki talabi hisoblanadi. Aynan ijro muddatiga qat'iy amal qilish hujjatlarni o'z vaqtida amaliy jihatdan amalga oshirish va uning natijasida boshlang'ich ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, ijro muddatiga amal qilish o'zga hujjatlarning ijrosini ta'minlash uchun vaqt qoldirishini eslatib o'tish joiz.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni yuritishda tegishli Ma'lumotlarni taqdim etib borish ana'ana tusini olgan. Bunda hujjatlarni taqdim qilgan davlat boshqaruv organlariga hujjatlarning ijrosi bo'yicha qisqa va aniq ma'ulotlar berib boriladi. Buning natijasida hujjatlarni taqdim qilgan tashkilotlar ularning ijrosi bo'yicha nazoratga ega bo'ladi. Mazkur ma'lumotlarning umumiy majmuasidan iborat shaklda yakuniy Hisobot tayyorlanadi. Ko'p hollarda me'yoriy hujjatlarning ijrosi bo'yicha muntazam ma'lumotlar berib borish ularni amalga oshirishda intizom va sifatni tarkib toptiradi. Ma'lumotlar asosida shakllantirilgan hisobot barcha talablarga javob berishi bilan ajralib turadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, hisobotni darhol tayyorlash me'yoriy hujjatlarning ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning to'liq aks etmay

qolishiga olib keladi. Shu sababli bu borada tegishli ma'lumotlar berib borish uslubi maqbul hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda mutaxassislar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega va bu hol ijro intizimining nazoratiga kiradi. Misol uchun, huquqshunoslar bilan hujjatda qo'yilgan vazifalarni aniqlashtirib olish kutilgan amaliy samarani beradi. Yoki ularning ijrosini ta'minlashda faol o'qituvchilar bilan ham hamkorlik qilish bu borada o'ziga xos tajribani egallashga hizmat qiladi. Keyingi paytlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologlar ham faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy vazifalaridan biri hujjatlar bilan ishlash uchun o'ziga xos muhit yaratishdan iborat. Shu sababli bunday ko'nikmalarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining ijrosini ta'minlashda davlat boshqaruv organlari maqomi, hujjatlarning qisqa, tezkor va uzoq muddatlari hamda mazkur hujjatlarning ijrosini nazoratga olish masalalari muhim o'rin tutadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitilayotgan majburiy (mutaxassislik) va tanlov fanlari "Ish yuritish tartibi" mavzusi bilan boyitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktab boshqaruvi bo'yicha bir qator ilmiy-nazariy va amaliy-metodik tadqiqotlar amalga

oshirilgan. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish muammolari bo'yicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faolligini oshirish taqozo etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining ijrosini ta'minlash bo'yicha zamonaviy va maqbul darajadagi ko'nikmaga ega bo'lish muhimdir. Chunki me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni bilish pedagogning professional faoliyati tarkibiga kiradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini davlat boshqaruv organlari maqomi bo'yicha ijroga qo'yish qanday tartibga amal qiladi?
2. Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritishning qisqa, tezkor va uzoq muddatlarini belgilash qanday tartibda amalga oshiriladi?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari ijrosini nazoratga olish deganda nimalarni tushunasiz?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini tartiblash, ijro muddatini shakllantirish va ularning nazoratini belgilash asoslarini o'zlashtiring hamda konspekt qiling.

8-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni takomillashtirib borish

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tizimni yangilab borish
2. Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish
3. Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritish samaradorligiga erishish yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

Me'yor, hujjat, boshlang'ich, ta'lim, yuritish, takomillashtirish, bilim, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tizimni yangilab borish. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish Strategiyasida innovasion jamiyat sharoitiga mos ravishda boshlang'ich ta'limda sifatga erishish va uni boshqarishda yangicha yondashuvlarni amalga oshirish vazifalari belgilangan. Bundan maqsad umumiy o'rta ta'lim jarayonini kuchaytirish va uning boshqaruvida inson kapitalidan oqilona foydalanishdir. Shu sababli boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish tizimni yangilab borish taqozo etiladi.

Amaldagi boshlang'ich ta'limdagi me'yoriy hujjatlarni yuritish tizimi yuqoridan pastga (gorizontal) shaklga asoslanadi, ya'ni ta'limni boshqaruvchi oliy organlardan umumiy o'rta ta'limlarga

me'yoriy hujjatlar ijro uchun taqdim etib boriladi. Bu tizim o'zining ko'p yillik tajribasiga ega bo'lib me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlashda muhim tayanch hisoblanadi. Ayni paytda mazkur tizimda inson omilining kuchayishi (qog'oz vositasida me'yoriy hujjatlar yuritish) kamchiligi mavjud. Unga ko'ra, muayyan me'yoriy hujjat Xalq ta'limi vazirligidan Toshkent shahar va viloyat xalq ta'limi boshqarmalariga, boshqarmalar esa tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlariga, bu bo'limlar esa umumiy o'rta ta'lim maktablariga taqdim etiladi. Natijada hujjatlarni yuritishning an'anaviy tizimi murakkablik xususiyatlariga ega bo'lgan holda saqlanib qolmoqda.

Ta'kidlangan Strategiyada barcha sohalar qatorida boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish tizimini yangilab borish vazifalari belgilangan. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, bunday yangilanish quyidagilarga asoslanishi kutilgan samarani beradi:

a) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish tizimiga gorizontal shaklni joriy etish, ya'ni Xalq ta'limi vazirligidan me'yoriy xujjatlarni bevosita tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlariga taqdim etish;

b) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish tizimida quyidagi yuqoriga tamoyilini joriy etish, ya'ni muayyan me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishida umumiy o'rta ta'lim maktablari

hamda tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlarining tashabbuskorligini tarkib toptirish;

v) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish tizimiga inson omilini kamaytiruvchi shakllarni joriy etish, ya'ni me'yoriy hujjatlarni yuritishda axborot-kommunikasion vositalariga keng ko'lamli asoslanishga o'tish.

E'tibor berilsa, bularni amalga oshirish boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini *yuritish tizimini* yangilab borish imkonini beradi. Chunki zamonaviy talablar va ehtiyojlar asosida yangi texnologiyalarga tayangan holda tashkil etilgan hujjatlarni yuritish tizimi o'zining samaradorligi bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan tashkil etilgan Davlat xizmatlari portalining bu boradagi tajribasi boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishda tizimni yangilab borish uchun namuna vazifasini bajaradi. Masalan, muayyan fan olimpiadalari yoki tanlovlar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'p hollarda bevosita ta'limni boshqarish muassasalari tomonidan taqdim etib kelinmoqda, aksincha, ta'lim portallarida bunday ma'lumotlarning keng ko'lamli ravishda mavjud bo'lishi boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini zamonaviy talablar asosida yuritish imkonini beradi. Bunday holat boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faollashuviga ham olib keladi.

Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish.
Mamlakatimizning raqamlashtirish dasturlari bo'yicha barcha

sohalar qatori ta'lim tizimi me'yoriy hujjatlarini ham raqamlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu borada ziyonet.uz, google.uz kabi portallarning o'ziga xos tajribasi mavjud. Aynan mana shunday tajribalarga tayangan holda boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish va ularga qat'iy amal qilish taqozo etiladi:

1) qonunlar, boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlar (davlat ta'lim standartlari va malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlari kabilar) kompyuter kabi axborot-kommunikasion vositalardan foydalangan holda raqamli portalga kiritish;

2) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish tartibi, yo'riqnomasi, topshiriqlar shakli, ma'lumotlar va hisobotlar variantlari kompyuter vositasida raqamlashtirilishi;

3) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini raqamli yuritish asoslarini huquqiy jihatdan mutahkamlab qo'yish.

Bularni amalga oshirish boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish asoslari hisoblanadi. Raqamlashtirilgan tizim boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishda tezkorlik, ishonchlilik va samaradorlik imkoniyatlarini beradi. Bugungi kunda Hisobotlarni taqdim etish raqamlashtirilganligini eslatib o'tish joiz. Bundan tajribalar asosida boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish va ular bo'yicha ko'nikmalarni egallash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan hujjatlarni yuritish tizimida insonning salbiy ta'siri omili kamayadi va ta'lim boshqaruvida tezkorlikning tarkib topishi yuzaga keladi. Buning natijasida o'rinsiz qog'ozbozlik kabi holatlar oldi olinadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu "Boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish" kabi o'quv fanlari vositasida boshlang'ich ta'limga oid hujjatlarni yuritishni raqamlashtirish ko'nikmasini egallash tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritish samaradorligiga erishish yo'llari. O'zbekiston Respublikasi "Innovasion faoliyat to'g'risida"gi Qonunida barcha sohalar qatorida ta'lim boshqaruviga yangicha yondashuvlarni joriy etish belgilangan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritish samaradorligig erishish uchun bir necha innovasion yo'llarga asoslanish taqozo etiladi. Bunday samarali yo'llarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1) boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini tipiklashtirish, ya'ni nizomlar, yo'riqnomalar va hisobot berish shakllarini yagona hujjat asosida takomillashtirish;

2) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlaridan ishga kirish yoki nafaqaga chiqish uchun talab etiladigan hujjatlar miqdorini kamaytirib borish, ya'ni bu boradagi hujjatlarning innovasion rivojlanish sharoitlariga moslashtirish;

3) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha barcha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakaga ega bo'lishiga erishish.

E'tibor berilsa, bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishda samaradorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli me'yoriy hujjatlarning tipiklashtirilishi, ularning ko'lamini tartibga solish va ish yuritish bo'yicha ko'nikmalarini egallash kabi yo'nalishlar boshlang'ich ta'lim boshqaruvini bugungi talablarga moslashtiradi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar umumiy pedagogik me'yoriy hujjatlar bilan tanishtiriladi. Lekin ularning ish yuritish ko'nikmasini amaliy jihatdan shakllantirish murakkabligicha qolmoqda. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha ko'nikmasini maxsus shakllantirish kutilgan samarani beradi. Buning uchun ular me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni bilishi, tegishli ma'lumotlar va hisobotlarni tayyorlay olishi, amaliy faoliyatlarida me'yoriy hujjatlardan foydalanishni bilishi taqozo etiladi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish samaradorligiga erishishda muhim vositalardan hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni takomillashtirib borish uning tizimini yangilash, hujjatlarni raqamlashtirish va hozirgi zamon texnologiyalari asosida

hujjatlarni yuritishda samaradorlikka erishish bilan belgilanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur masalalar bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha tizimni yangilab borish asoslari nimalardan iborat?
2. Boshlang‘ich ta’lim hujjatlarini yuritishni raqamlashtirishda qanday vositalarga asoslaniladi?
3. Boshlang‘ich ta’lim hujjatlarini yuritish samaradorligiga erishish yo‘llari nimalardan iborat?

Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:

Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritishni takomillashtirib borishning tizimi, raqamlashtirish asoslari va samaradorlikka erishish vositalarini o‘zlashtiring.

9-mavzu: Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha hisobot tayyorlash

Reja:

1. Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha birinchi darajali tizimi hisoboti (qonunlar, Prezident va Vazirlar

Mahkamasi qarorlari ijrosi). Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha o'rta tizim hisoboti (davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va dasturlarning ijrosi).

2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tezkor tizim hisoboti (bevosita Xalq ta'limi vazirligi me'yoriy-huquqiy hujjatlari).

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, me'yor, hujjat, ish yuritish, tizim, hisobot, yondashuv, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha birinchi darajali tizimi hisoboti. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunida me'yoriy hujjatlarning ijrosi bo'yicha hisobotlar tizimini tayyorlash va hisobotlar natijalariga ko'ra hujjatlarning amal qilinishini to'xtatish tartibi belgilangan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amal qilish tartibi quyidagi ikki asosda to'xtatiladi:

- 1) hujjatlarning ijrosi to'liq ta'minlanganida;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan yangi hujjat qabul qilinib, amalda me'yoriy hujjatlarni ijrodan to'xtatish to'g'risidagi qarorlari asosida.

Mazkur asoslarga asosan ko'p hollarda me'yoriy hujjatlar ijrosi tartibga solinib boriladi. Bu borada ayniqsa hisobotlar tayyorlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Hisobotlarni tayyorlashda amaldagi

ish yuritish tartibiga ko'ra bir necha tizimga asoslaniladi. Ana shunday tizimdan biri birinchi darajali tizim hisobotidir. Bunday hisobot shakli quyidagi hujjatlarning ijrosi bo'yicha tayyorlanadi:

- a) ta'limga oid qonunlar ijrosi bo'yicha;
- b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi bo'yicha;
- v) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari bo'yicha.

Bu birinchi darajali tizim hisoboti choraklik va yillik shakllarda tayyorlanadi. Unda quyidagi shakl asosida hisobotni tayyorlash qabul qilingan:

1-jadval

<i>T/r</i>	<i>Hujjatlar bo'limlarining mazmuni</i>	<i>Amalga oshirilgan ishlar tavsifi</i>	<i>Ijro etilgan muddati</i>

Ushbu shakl asosida hujjatlarning birinchi darajali tizimi hisobotini elektron va qog'oz shakllarida tayyorlanib, tegishli muassasaga taqdim etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari birinchi darajali tizim hisobotlarini tayyorlashda quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- a) hujjatlarning mazmunini to'liq tushunish;
- b) hujjatlar ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning asosiylarini hisobotga kiritish;

v) hisobotda kelgusida amialga oshiriladigan yo‘nalitshlar va ijro jarayonida duch kelingan muammolarning aks etishi.

Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik talabalar hisobotlarni tayyorlashda ularning hajm jihatiga e‘tiborni qaratishadi. Lekin birinchi darajali hisobotlarda hajm ikkinchi darajali hisoblanadi va unda asosan faktik ma‘lumotlarning berilishi talab etiladi. Shuningdek, bunday hisobotlar shaklida hujjatlar ijrosida faol ishtirok etgan shaxslarning nomlari ko‘rsatilishi taqozo etiladi. Birinchi darajali tizim hisobotlarini tayyorlashda hujjatlar ijrosida ishtirok etgan shaxslarning faol qatnashishi Ish yuritish yo‘riqnomasida belgilab qo‘yilgan. Shu sababli bunday hujjatlar hisobotlarida me‘yoriy hujjatlarning ijrosida ishtirok etgan barcha shaxslarning imzosi aks etadi va muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanib, keyin so‘ralgan muassasaga taqdim etiladi. Birinchi darajali tizim hisobotlarini saqlash muddati 5 yil etib belgilangan va 5 yildan keyin ular muassasaning arxiviga topshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan Reglamentga ko‘ra birinchi darajali hisobotlarning elektron shakli muassasaning axborot-resurs markaziga yoki uning portaliga kiritilishi shart. Boshlang‘ich ta‘limga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bo‘yicha birinchi darajali tizim hisoboti tayyorlanganida uning bir nusxasi albatta O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligiga taqdim etiladi va taqdim etish yo‘llanma xati maktab Pedagogik kengashi tomonidan yo‘llanadi. Bunday ko‘nikmalarni egallash bugungi

kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zaruriyat hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha o'rta tizim hisoboti. Me'yoriy hujjatlarni yuritishda o'rta tizim deganda umumiy o'rta ta'lim maktabi, tuman (shahar) va viloyatlar xalq ta'limi bo'limlari nazarda tutiladi. Mazkur tizim hisobotlarini tayyorlashda quyidagilarga asoslaniladi:

- a) o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari bo'yicha to'liq hisobot;
- b) o'quvchilarning o'zlashtirishi va davomatiga doir hujjatlar ijrosi bo'yicha hisobot;
- v) o'qituvchilarning malaka darajasi va ularning kategoriyalarga egaligi to'g'risidagi hisobot.

E'tibor berilsa, o'rta tizim hisoboti asosan ta'lim va tarbiyaga oid hujjatlar hamda axborot resurslarning holati bo'yicha tayyorlanadi. Bunda muayyan shakl qabul qilinmagan, lekin hisobotni tayyorlashda tafsiliylik, ya'ni batafsillik tamoyiliga asoslaniladi. Mazkur shakldagi hisobotlar asosan maktab Pedagogik kengashi tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanib, tegishli ta'lim muassasasi boshqaruviga taqdim etiladi.

O'rta bo'g'in tizimi hisobotini tayyorlashda asosiy e'tibor o'quv fanlari o'qituvchilarining fikrlari va tashabbuslariga qaratiladi. Shu sababli bunday hisobotlar har chorakda bir marotaba tayyorlanib boriladi. Bunday hisobotlarning saqlanish muddati ham 3 yil, lekin

ular ta'lim muassasasi axborot-resurs markazi ro'yxatiga kiritilmaydi.

2015 yili YUNESKO tomonidan ta'lim muassasalari hisobotlarini ixchamlashtirish va tipiklashtirish tavsiyasi qabul qilindi. Shu sababli bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ta'lim muassasalarining o'rta bo'g'in hisobotlarini yagona portal asosida tartibga solib boradi va bunda hisobotlarning qog'ozli nushasi taqdim etilishi shart emas.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari haftalik amaliyot davrida boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'rta bo'g'in tizimi hisobotlarini tayyorlash ko'nikmasini egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rta bo'g'in hisobotlarini tayyorlashda muhim amaliy tajribaga ega.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tezkor tizim hisoboti. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tezkor hisobot tayyorlash shakli ham muhim ahamiyatga ega. Bunday shakldagi hisobot quyidagi asosda tayyorlanadi:

- a) bir hujjat bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tavsifi;
- b) hujjatning amal qilish muddati va unda belgilangan vazifalarning bajarilgan qismi tavsifi;
- v) hujjatni ijrodan to'xtatish yoki uning ijro muddatini uzaytirish to'g'risidagi taklif.

Tezkor hisobot shakli asosan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi so‘rovnomasiga ko‘ra tayyorlanadi va unda ko‘p hollarda davlat ta’lim standartlari va malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarining bajarilishi yuzasidan ma’lumot tayyorlanadi. Hisobotning bu shaklida quyidagi asosga tayanish amal qilmoqda:

2-jadval

<i>T/r</i>	<i>Hujjatlarda qo‘yilgan vazifalar tavsifi</i>	<i>Qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi tavsifi</i>	<i>Ijro etilgan muddati va uning ishtirokchilari</i>

Mazkur hisobot shakli umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi va Sinf rahbari tomonidan imzolanadi. Misol uchun, yangi o‘quv adabiyotlari bo‘yicha muayyan hujjatning ijrosi bo‘yicha tayyorlangan tezkor hisobotda shu adabiyotlarning nomi, mualliflari, qabul qilingan adadi va nashr etilgan yili alohida ko‘rsatiladi. Shuningdek, bunday hisobot shaklida ko‘p hollarda davlat ta’lim standartlari yoki malaka talablariga yangi qo‘shimchalar kiritish yoki ularni ijchamlashtirish kabilar to‘g‘risidagi takliflar belgilanadi. Shu sababli tezkor hisobot shakli asosan choraklik muddatida tayyorlanadi. Bunday hisobotlarning saqlanish muddati 3 yil va ularning elektron nusxasi ta’lim muassasasining axborot-resurs markazida saqlanadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday hisobot shakllarini tayyorlashda asosan faktik

ma'lumotlarni aks ettirish va ularni tavsiflash samarali hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim vositasida tezkor hujjatlar hisobotini tayyorlash ko'nikmasini egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha hisobotlar tizimi birinchi darajali, o'rta bo'g'in va tezkor tizimlarga asoslanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha birinchi darajali tizimi hisoboti qanday tayyorlanadi?
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha o'rta tizim hisoboti qanday asoslarga ko'ra tayyorlanadi?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tezkor tizim hisobotini tayyorlashda nimalarga asoslaniladi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha o'rta tizim hisobotini tayyorlashni haftalik amaliyot davrida o'rganing.

Mazkur 2-modulda boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlari yuritish metodikasi bo'yicha hujjatlarni tizimlashtirish, ularning ijrosini ta'minlash, hujjatlarni yuritishni takomillashtirib borish va hisobotlar tayyorlash ko'nikmasi bo'yicha tushuncha berildi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtirilgan ko'nikmalarini haftalik amaliyot davrida tajribadan o'tkazishi tavsiya etiladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni. // [www. google.uz](http://www.google.uz)
2. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021
3. Karimjonov A., Jabborova O. va boshq. Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari. – Toshkent, 2021
4. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022

3-MODUL. «Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini yuritish samaradorligi»

10-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha individual tajribani shakllantirish

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tegishli adabiyotlar bilan tanishib borish
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha izlanishlar olib borish
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha individual tajribaga ega bo'lish.

Tayanch tushunchalar:

Tajriba, tadqiqot, ta'lim, boshlang'ich, hujjatlar, ish yuritish, individuallik, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tegishli adabiyotlar bilan tanishib borish. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish va uni boshqarishda innovasion yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yuksak darajada ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Chunki aynan

me'yoriy hujjatlarni yuritishni bilish ta'lim va tarbiya jarayonini oqilona tashkil etishning asoslaridan biridir.

O'rganishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida me'yoriy hujjatlar bo'yicha muayyan tushunchalarga ega bo'lishadi. Ayni paytda, ularda me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha amaliy tajribaning yetishmasligi kuzatiladi. Misol uchun, ba'zan talabalarning ariza yozishda ham murakkablikka duch kelishi namoyon bo'lmoqda. Vaholangki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlarni bilishi kasbiy kompetensiyaning tarkiblaridan birini tashkil etadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha *tegishli adabiyotlar* bilan tanishib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Negaki, aynan adabiyotlar bilan tanishib borish me'yoriy hujjatlarni yuritish malakasini egallashning asoslaridan biridir. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

a) me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha nashr etilgan kitoblar bilan tanishib borish;

b) Internet global axborot tarmog'i vositasida me'yoriy hujjatlarni yuritish ko'nikmalarini egallash;

v) "Boshlang'ich ta'lim", "Xalq ta'limi" jurnallari va "Ma'rifat" gazetasi bilan tanishib borish.

Keyingi paytlarda “Kadrlar bilan ishlash” haftalik jurnali ommalashib bormoqda. Mazkur jurnal O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan nashr etiladi va unda huquqshunos mutaxassislarning me’yoriy hujjatlarni yuritish bo‘yicha tavsiyalari muntazam berib boriladi. Ushbu jurnalda ta’limga oid amaldagi hujjatlar va ijrosi to‘xtatilgan hujjatlar ro‘yxatlari muntazam berib boriladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tegishli adabiyotlar vositasida me’yoriy hujjatlarni yuritishni o‘rganishi samarali hisoblanadi. Chunki tegishli adabiyotlarda eng muhim tavsiyalar va yo‘riqnomalar tavsif etilgan bo‘ladi. Bunday adabiyotlarni kompyuter dasturlari vositasida ham o‘rganish mumkin. Unda “ziyonet.uz” va “google.uz” portallarida berib boriladigan materiallar muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bunday adabiyotlar bilan tanishib borish va murakkablikka duch kelganida ustozlardan tavsiyalar olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim me’yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha izlanishlar olib borish. Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning me’yoriy hujjatlarni yuritish bo‘yicha *izlanishlar* olib borishi muhim hisoblanadi. Bunda izlanishlar deganda eng kerakli me’yoriy hujjatlarni topish, ulardan foydalanish va amaliy faoliyatda kutilgan darajada qo‘llash nazarda tutiladi. Shu

sababli bunday izlanishlarni olib borishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) ta'lim muassasasining axborot-rusurs markazida mavjud bo'lgan me'yoriy hujjatlar bilan tanishish va ularning ro'yhatidan xabardor bo'lish;

b) axborot-kommunikasion vositalar orqali tegishli me'yoriy hujjatlarni topish va ulardan foydalanishni bilish;

v) faoliyatda me'yoriy hujjatlarni qo'llash ko'nikmasini egallash.

2001 yili Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston universitetida bo'lajak o'qituvchilarning me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan tadqiqot o'tkazilgan. Tadqiqotda 203 nafar bitiruvchi talaba ishtirok etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bitiruvchi talabalarning 34,1 foizi me'yoriy hujjatlar bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lgan, qolganlari mazkur hujjatlarni endi o'rganishini bildirgan. Natijada tadqiqot mualliflari bo'lajak o'qituvchilarning me'yoriy hujjatlarni bilishiga doir maxsus fan ishlab chiqish va uni amalga kiritish taklifini taqdim qilgan. Ana shu taklifga asosan 2002 yildan boshlab AQSH oliy ta'lim muassasalarida "Ta'lim menejmenti" o'quv fani majburiy fan sifatida o'qitib kelinmoqda. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik-mutaxassislik fanlar va mazkur "Boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish" o'quv fani vositasida me'yoriy hujjatlarni

yuritish bo'yicha izlanishlar olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun mustaqil o'qib-o'rganish va haftalik amaliyot davrida ularni tajribadan o'tkazish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantirishga erishiladi. Ayni paytda, bunda talabalarning muayyan hujjatlar bo'yicha elektron ishlanmalar yaratishga ko'nikishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, innovasimon rivojlanish sharoitida me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha izlanishlar ko'nikmasiga ega bo'lish zamonaviy texnologiyadan foydalanish jarayonini kuchaytiradi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha individual tajribaga ega bo'lish. Mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida har bir o'qituvchining individual tajribaga ega bo'lishini ta'limning yutug'i sifatida ko'rsatgan edi. Shu jihatdan bo'lajak sinf o'qituvchilarining har biri me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha *individual tajribaga* ega bo'lishi samarali hisoblanadi. Chunki individual tajriba o'qituvchining kasbiy yetukligini baholovchi mezonlardan bo'lib, unda o'qituvchi mehnatining samarasi namoyon bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha individual tajribaga ega bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilishi tavsiya etiladi:

a) eng kerakli hujjatlarni saralay olish va ularning mazmunini tez o‘zlashtirish;

b) har bir hujjatning yuritish xususiyatlarini aniqlab olish va o‘rganish;

v) o‘zlashtirgan bilimlarini tajriba-sinovdan o‘tkazib borish.

Bugungi kunda talabalarning kompyuter axborot-kommunikasion vositasidan foydalanish tajribasi mavjud. Shu sababli mazkur texnologiya vositasida me‘yoriy hujjatlarni yuritish bo‘yicha individual tajribani egallash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun hujjatlarning mazmuni, ijrosi va ularning hisoboti bo‘yicha ishlanmalar tayyorlash, taqdim etilayotgan treninglarda ishtirok etish va o‘z ishlanmalarini taqdim etib borish muhim hisoblanadi. Misol uchun, keyingi paytlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan yoshlarning startup loyihalari IT parklarida muntazam qabul qilinmoqda va ular ommalashtirib borilmoqda. Shu jihatdan talabalarning me‘yoriy hujjatlar yuritish bo‘yicha elektron ishlanmalar yaratishi va ularni ana shu parklarga taqdim etib borishi muhim amaliy samaralarni beradi. Buning natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’limga oid me‘yoriy hujjatlarni yuritish bo‘yicha individual tajribasi tabiiy ravishda rivojlanib boradi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha individual tajribalar tegishli adabiyotlarni o‘zlashtirish,

me'yoriy hujjatlar bo'yicha izlanishlar olib borish va mustaqil ishlanmalar yaratish asosida egallanadi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil izlanishi taqozo etiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tegishli adabiyotlar bilan tanishib borish qanday amalga oshiriladi?
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha izlanishlar olib borish nimalarga asoslanadi?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha individual tajribaga ega bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tasvirli va rolikli elektron ishlanma yarating.

11-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'zlashtirish

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib borish
2. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida va o'qituvchilarning malaka oshirish kurslari vositasida tajribalarni o'rganish

3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha maqbul metodlarni o'zlashtirish.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, me'yoriy, hujjat, yuritish, o'zlashtirish, tajriba, o'rganish, bilim, ko'nikma.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib borish. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishda me'yoriy hujjatlarni yuritishni o'zlashtirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun eng avvalo *ilg'or tajribalarni* o'rganishga e'tibor qaratish kerak. Bunda ilg'or tajribalar deganda hujjatlarni yuritish bo'yicha milliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribalarini o'rganish nazarda tutiladi. Shu jihatdan bu masalada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha milliy tajribalarni o'rganib borish;

b) me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha xorijiy ta'lim muassasalarining tajribalarini o'rganib borish;

v) o'zlashtirilgan ilg'or tajribalar bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha mamlakatimizda o'ziga xos milliy tajribalar mavjud. Bunday tajribalarning asosini me'yoriy hujjatlarni ishlab

chiqish va yangilab borish, ularning ijrosini ta'minlash hamda me'yoriy hujjatlarni tartibga solib borish tashkil qiladi. Bu borada ayniqsa, "Xalq ta'limi", "Boshlang'ich ta'lim" jurnallari va "Ma'rifat" gazetasida e'lon qilib borilayotgan metodik tavsiyalarga e'tibor berish samarali hisoblanadi. Misol uchun, "Ma'rifat" gazetasida muntazam ravishda davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini qo'llash yoki o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini yuritish bo'yicha metodik tavsiyalar nashr etib boriladi. Bundan metodik tavsiyalar vositasida me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha milliy tajribani o'zlashtirish yuzaga keladi. Chunki metodik tavsiyalar huquqshunoslar va tajribali pedagoglar tomonidan ishlab chiqiladi. Ayni paytda, mamlakatimiz me'yoriy hujjatlarni yuritish jarayonida keyingi paytlarda raqamlashtirish texnologiyasiga asoslanish ustuvor darajada yuzaga kelayotganligini ta'kidlab o'tish joiz. Chunki raqamli texnologiyalar me'yoriy hujjatlarni yuritishdagi vaqt hajmini kamaytiradi va ularning ijrosi bo'yicha yangicha yondashuvlarga asoslanadi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning *tajribalarini* o'rganib borish ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa, Yevropa mamlakatlari va AQSHda me'yoriy hujjatlarni yuritishda minimal darajaga tayanish tamoyiliga asoslaniladi. Misol uchun, Germaniya Respublikasida boshlang'ich ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablari har bir o'quv fanining dasturida aks ettiriladi hamda dastur

ana shu standartlarni ijrosiga yo'naltiriladi. Fransiya Respublikasida boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni yuritishda asosan YUNESKO tashkiloti tavsiyalariga asoslaniladi. YUNESKO tashkiloti tavsiyalarida boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarida ta'lim oluvchilarning huquqlarining ustuvor bo'lishi aks etgan va shu sababli Fransiya boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning davomati nazorat qilinmoydi, aksincha, o'quvchilar erkin mashg'ulotlarga qatnashish huquqidan foydalanishadi. Finlandiya Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimida esa Rossiya Federasiyasi kabi boshlang'ich maktablar tizimiga asoslaniladi. Bunda boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limdan alohida ta'lim muassasasida amalga oshiriladi va shu jihatdan uning o'ziga xos me'yoriy hujjatlari amal qiladi. AQSHda boshlang'ich ta'lim tizimi hujjatlari bevosita Universitetlar tomonidan ishlab chiqiladi va ularning ijrosi nazorat qilinadi. Bunday asosiy xususiyat bizning ta'lim tizimimizdagi kabi o'quvchilarning ta'lim tilini ixtiyoriy tanlashidir. Bunday xorijiy tajribalarni o'rganib borish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari milliy va xorijiy ish yuritish tajribalarini o'zlashtirish jarayonini *ko'nikma* sifatida egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday ko'nikma boshlang'ich ta'limni qonuniy jihatdan to'g'ri tashkil etish, uni huquqiy tartibda boshqarish va boshlang'ich ta'lim samaradorligiga

pedagogik qonuniyatlar asosida erishishdan iborat hisoblanadi. Shu sababli har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning eng muhim asoslaridan biridir. Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimimizning me'yoriy hujjatlarini takomillashtirish ehtiyoji mavjud. Misol uchun, "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomda bir sinfda 30 o'quvchi bo'lishi belgilab qo'yilgan. Bu hol har bir o'quvchi bilan individual ishlash jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli sinfda o'quvchilar sonini kamaytirish yo'lidan borish dolzarb bo'lib turibdi. Masalan, buning uchun mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari yetarli ekanligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida va o'qituvchilarning malaka oshirish kurslari vositasida tajribalarni o'rganish. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish tajribalarini o'rganishi zaruriyat hisoblanadi. Buning uchun "Boshlang'ich ta'limda me'yoriy hujjatlarni yuritish" o'quv fani va mustaqil ta'lim vositasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tajribalarni o'rganish uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

a) boshlang'ich ta'limga oid asosiy me'yoriy hujjatlar bilan maxsus tanishish;

b) boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha ustozlar bilan hamkorlik qilish;

v) o'rganish jarayonini albatta konspekt qilib borish.

Tajribali o'qituvchilar uslubi shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligi talabalik davrida tutgan daftarlari saqlanadi. Bugungi kunda bu uslubdan tashqari o'rganish jarayonini kompyuter vositasida ham ishlanma tariqasida yaratib borish imkoniyatlarni kengaytiradi. Shu sababli talabalar aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritish tajribalarini o'rganish bo'yicha imkoniyatlarga ega ekanligini eslatib o'tish kerak.

Amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha malakalarini rivojlantirib borish kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarida amalga oshiriladi. Bunda boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlariga kiritilgan yangiliklar va o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berish;

b) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini elektron shaklda yuritish bo'yicha ko'nikma berish;

v) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari bo'yicha mutaxassislar ishtirokida treninglar o'tkazish.

Bunday yondashuv amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha malakasini kuchaytiradi. Misol uchun, me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha treninglar o'tkazish amaliy jihatdan samarador hisoblanadi va unda mutaxassislarning moderatorlik qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, oliy pedagogik ta'lim jarayoni va o'qituvchilarning malaka oshirish kurslari vositasida boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tajribalarni o'rganish imkoniyatlari kengdir. Bunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida ko'nikma hosil qilinsa, malaka oshirish kurslarida esa o'qituvchilarning malakasi kuchaytiriladi. Natijada boshlang'ich ta'lim tizimini oqilona boshqarish imkoniyatlari kengayib boradi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha maqbul metodlarni o'zlashtirish. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonida va boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritish bo'yicha *maqbul metodlar* mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunday maqbul metodlarning asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

a) me'yoriy hujjatlarni yuritishda qisqalik va tezkorlik metodiga asoslanish;

b) me'yoriy hujjatlarni yuritishda individual tajribalarga asoslanish metodi;

v) me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha ilg'or maktablarning metodi.

Bunday metodlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida mashg'ulotlar orqali va haftalik amaliyot davrida esa mustaqil harakat vositasida o'zlashtiriladi. Shu jihatdan qisqalik va tezkorlik metodi me'yoriy hujjatlarni yuritishda qog'ozbozlikni oldini oladi, individual tajriba metodi esa boshlang'ich sinf o'qituvchisining faolligini tarkib toptiradi va maktablarning me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha o'ziga xos metodlari yillar davomida shakllangan tajribaning hosilasi hisoblanadi. Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'ziga xos tajribalarni beradi.

Bular boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'zlashtirib borish asoslaridir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarinin mazkur masalalarni o'zlashtirishi zaruriyat hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib borish qanday amalga oshiriladi?

2. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida va o'qituvchilarning malaka oshirish kurslari vositasida tajribalarni o'rganishda nimalarga e'tibor berish kerak?

3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha maqbul metodlarni o'zlashtirish asoslarini nimalar tashkil etadi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha ilg'or tajribalardan iborat referat tayyorlang.

12-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni texnologiyalashtirish

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini kompyuterlashtirish.

2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish.

3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirish.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, me'yoriy, hujjat, yuritish, texnologiyalashtirish, raqamlashtirish, kompyuterlashtirish.

Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini kompyuterlashtirish. Mamlakatimizda bugungi kunda barcha sohalar qatorida boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ham kompyuterlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan maqsad kompyuter o‘quv texnikasining imkoniyatlaridan foydalangan holda ta‘lim sifatini oshirish, o‘qitishda yangi texnologiyalarga asoslanish va o‘quvchilarning ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishdir. Shu sababli bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini *kompyuterlashtirish* masalasi ham dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) boshlang‘ich ta‘limga oid me‘yoriy hujjatlarni maxsus dastur asosida kompyuterga kiritish;
- b) maxsus dastur asosida boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlariga berilgan sharhlarni kompyuterga kiritish;
- v) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kompyuter vositasida me‘yoriy hujjatlarni yuritish ko‘nikmasi bilan qurollantirish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta‘lim jarayonini demokratlashtiradi va uning insonparvarlik tamoyilini kuchaytiradi. Chunki kompyuter me‘yoriy hujjatlarini yuritishda tasviriylilik, roliklik va animasion materiallarni taqdim etishi bilan keng imkoniyatlarga egadir. Ayniqsa, bunda inson omilining salbiy ta‘siri kamayadi. Shu sababli kompyuterlashtirish jarayoni boshlang‘ich

ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishda vaqt tejamkorligiga olib keladi. Shu sababli "Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini kompyuter vositasida yuritish" yo'riqnomasini ishlab chiqish va amalga kiritish dolzarb bo'lib turibdi. Bunday yo'riqnoma oliy pedagogik ta'lim jarayonida informatika va kompyuterlashtirish asoslarini o'qitish jarayonini ham kengaytiradi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasiga asosan ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunda raqamlashtirish texnologiyasiga tayanish bosh maqsad sifatida belgilangan. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni *raqamlashtirishda* quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) me'yoriy hujjatlarni yuritishda kompyuter imkoniyatlaridan keng foydalanish;

b) me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha maxsus raqamlashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish;

v) raqamlashtirish asoslari bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tanishtirish.

Me'riy hujjatlarni raqamlashtirishda maxsus kodlardan foydalaniladi. Misol uchun, ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari A kodi bilan, davlat ta'lim standartlari va malaka talablari D kodi bilan belgilanadi. Bunday kodlashtirish lotin yozuvidagi o'zbek tilida

amalga oshiriladi. Natijada hujjatlarni izlash, topish, ulardan foydalanish va ijrosini ta'minlashda kodlarga asoslaniladi. Kodlarga asoslanish me'yoriy hujjatlarni yuritishda intizomlik va tartiblikni keltirib chiqaradi. Ayni paytda, raqamlashtirish qog'ozbozlik kabi illatlarni oldini oladi. Chunki hujjatlarni yuritishning raqamlashtirilgan nushasi haqiqiy deb hisoblanadi. Bunday yondashuv Yevropa mamlakatlari va AQSHda keng qo'llanilmoqda. Shu sababli keyingi paytlarda me'yoriy hujjatlarni yuritishni raqamlashtirish YUNESKO tomonidan ham tavsiya etilgan. Asosiy e'tibor me'yoriy hujjatlarni yuritishda vaqt tejamkorligiga erishish va inson omilining salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Umuman me'yoriy hujjatlarni yuritishni raqamlashtirish jarayoni bugungi kunda barcha Osiyo mamlakatlari ta'lim tizimida amalga oshirilayotganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirish. Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish ishini takomillashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan o'qituvchilardan talab qilinadigan hisobotlar kamaytirildi yoki zamonaviy elektron kundalik yuritishga o'tilganligini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishning quyidagi ***yangi texnologiyalarini o'zlashtirish*** maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) me'yoriy hujjatlarni yuritishning elektron texnologiyasini o'zlashtirish;

b) me'yoriy hujjatlarni yuritishning onlayn texnologiyasini o'zlashtirish;

v) me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha virtual texnologiyani o'zlashtirish.

Me'yoriy hujjatlarni yuritishning elektron texnologiyasi o'ziga xos shakllar va namunaviy metodlar asosida kompyuterda ishlab chiqiladi. Misol uchun, keyingi paytlarda bu borada Hisobotlarni elektron shaklda taqdim qilish tajribasi shakllandi. Shu jihatdan har bir boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini elektron shaklda yuritish texnologiyasi qulayligi, tezkorligi va vaqtni tejashi bilan muhim hisoblanadi. Mavjud ijtimoiy muhit va shart-sharoitlar butun dunyo bo'yicha faoliyatni onlayn tarzda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishda onlayn texnologiyasining qulayligi va imkoniyati kengligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunda kompyuter, TV, videokonferensiya kabi shakllar vositasida me'yoriy hujjatlarni yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, muayyan me'yoriy hujjatning ijrosi bo'yicha videokonferensiya shaklida faoliyat yuritish o'zining amaliy samarador ekanligini ko'rsatadi. Bunda ishtirokchilarning tezkor ma'lumotga ega bo'lishi ta'minlanadi. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini virtual texnologiya ham muhim ahamiyachtga ega. Unga ko'ra, masofadan

turib va inson omilisiz me'yoriy hujjatlar ijrosi bo'yicha tajriba ayirboshlash amalga oshiriladi. Misol uchun, muayyan oliy pedagogik ta'lim muassasasida hujjatlar ijrosi bo'yicha tayyorlangan materiallar virtual tarzda o'zga oliy ta'lim muassasasiga uzatilishi me'yoriy hujjatlarni yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni texnologiyalashtirish muhimdir. Bunda hujjatlarni kompyuterlashtirish, raqamlashtirish va maqbul virtual texnologiyalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini kompyuterlashtirish asoslari nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni raqamlashtirish qanday amalga oshiriladi?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishning qanday yangi texnologiyalari mavjud?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha elektron shaklda ishlanma tayyorlang.

13-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini monitoring qilib borish

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini choraklik va yillik shaklda yo'lga qo'yish
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amal qilishdan chiqarish tizimi
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini nazorat qilish metodikasi.

Tayanch tushunchalar:

Monitoring, hujjat, me'yor, boshlang'ich, ta'lim, tarbiya, o'rganish, muddat, ijro, bilim, ko'nikma.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini choraklik va yillik shaklda yo'lga qo'yish. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimi o'ziga xos boshqaruv xususiyatlariga ega. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish, ular asosida o'qituvchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish va o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini yuksaltirishdan iborat. Buning uchun me'yoriy hujjatlar o'ziga xos tarzda yuritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayonida

quyidagilarga *asoslanish* normativ-huquqiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi:

- a) me'yoriy hujjatlarni yuritishni choraklik shaklda tashkil etish;
- b) me'yoriy hujjatlarni yuritishni yillik shaklda tashkil etish;
- v) choraklik va yillik hisobotlarni yo'lga qo'yish.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini choraklik shaklda yuritish ularni monitoringini olib borishning eng maqbul usullaridan biridir. Chunki monitoringda muayyan hujjatning ijro jarayoni, olingan samaralar va duch kelingan murakkabliklar o'rganib chiqiladi. Shu sababli me'yoriy hujjatlarni choraklik yuritish ularning ijrosini ta'minlashdagi eng muhim vositadir. Choraklik shaklda me'yoriy hujjatlarni yuritishda asosan quyidagi hujjatlarning ijrosi ta'minlanadi:

- davlat ta'lim standartlari va malaka talablari;
- o'quv reja va dasturlari;
- xalq ta'limi tizimini boshqaruvchi organlarning buyruq va ko'rsatmalari.

Mazkur hujjatlar turlari choraklik shaklda yuritilsa, ularda qo'yilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash oson kechadi va hujjatlar nazoratini amalga oshirish tarkib topadi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yillik shaklda yuritish o'ziga xos tizimning tarkib topishiga va qog'ozbozlikning kamayishiga olib keladi. Chunki yillik shakldagi me'yoriy hujjatlarni yuritish asoslari bu borada o'qituvchilar jamoasining faol

ishtirok etishini taqozo etadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining quyidagi turlari yillik shaklda yuritilida:

- davlat boshlang'ich ta'lim bo'yicha dasturlari (misol uchun, "2022-2026 yillarda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish Milliy dasturi");
- boshlang'ich ta'limga oid strategik dasturlar (misol uchun, boshlang'ich ta'limga xalqaro baholash dasturlarini joriy etish);
- o'quv fanlarini chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan va maxsus tizim asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturlari.

Mazkur me'yoriy hujjatlar yillik shaklda yuritiladi va ular bo'yicha erishilgan natijalar o'quv yili asosida belgilanadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, me'yoriy hujjatlarni yillik shaklda yuritish ularning ijrosini puhta ta'minlash, hujjatlarda qo'yilgan vazifalarning ijrosi natijasida aniq yangiliklarga erishish va jamoa bo'lib hujjatlar bilan ishlash uchun asoslar yaratadi.

Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini yuritish asosan hisobotlar tizimiga tayanadi. Bunda hisobotlarni choraklik va yillik shakllarda taqdim etish normativ-huquqiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Ba'zida xalq ta'limini boshqaruv organlarining Taqdimnomalariga asosan tezkor ravishda ma'lumotlar tayyorlash kerak bo'ladi, lekin ular hisobot hisoblanmaydi. Shu jihatdan choraklik va yillik shakllardagi hisobotlarni tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bajarilgan ishlarni faktik ma'lumotlar asosida ko'rsatish;

- ijrosi ta'minlangan hujjatlarning qaysi bandlari bajarilganligini qayd etish;

- ijrodagi me'yoriy hujjatlarni ijrosini bajarishda duch kelinayotgan murakkabliklar tavsifi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda hisobotlarning hajm jihatidan keng bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Aksincha, taqdim etilgan hisobotlar hajm jihatidan ixcham, faktik ma'lumotlarga boy va tushunarli shaklda bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amal qilishdan chiqarish tizimi. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimi boshqaruvida me'yoriy hujjatlarning yangilanib va o'zgarib borayotganligi o'ziga xos xususiyatlardan biridir. Chunki jamiyatimizda innovasion rivojlanish strategiyasmi amalga oshirilmoqda va bunday sharoitda boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlar ham yangilanib va takomillashib boradi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini *amal qilishdan chiqarish tizimi* bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bugungi kunda me'yoriy hujjatlarni amal qilishdan chiqarish tizimi quyidagi shakllarda mavjud:

- a) yangi me'yoriy hujjatlar qabul qilinganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari asosida;

b) me'yoriy hujjatlarning to'liq ijrosi ta'minlanganida Xalq ta'limi tizimini boshqaruvchi organlarning buyruqlari va Hay'ati qarorlari asosida;

v) muayyan ta'lim muassasasi Pedagogik kengashining qarori asosida.

Me'yoriy hujjatlarni amal qilishdan chiqarish ularning ijrosi ta'minlanganligini bildiradi. Misol uchun, muayyan me'yoriy hujjatni amaldan chiqarish maktab Pedagogik kengashi tomonidan yuqori xalq ta'limi boshqaruv organlariga taklif kiritiladi. Biroq, maktab Pedagogik kengashiga me'yoriy hujjatlarni amaldan chiqarish bo'yicha taklif sinf rahbarlari yoki o'qituvchilar jamoasi tomonidan taqdim etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, biror me'yoriy hujjatni amal qilishdan chiqarish yanada takomillashgan yangi hujjatlarni ishlab chiqishga asos yaratadi. Chunki boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayoni muntazam rivojlanib boruvchi xususiyatga ega bo'lib, me'yoriy hujjatlarning takomillashgan shakliga ehtiyoj sezadi. Shu sababli butun dunyoda eng avvalo boshlang'ich ta'lim bosqichiga oid me'yoriy hujjatlarni tartibga solishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini nazorat qilish metodikasi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini to'g'ri yuritishni *nazorat qilish metodikasini* o'zlashtirish muhim hisoblanadi. Chunki me'yoriy hujjatlarni to'g'ri yuritish ular vositasida ta'lim tizimini maqsadli

rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini to‘g‘ri yuritishni nazorat qilish metodikasida quyidagilar asosiy o‘rin tutadi:

a) ta‘lim tizimini boshqaruvchi tashkilotlarning Taqdimnoma asosida me‘yoriy hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish;

b) maktab Pedagogik kengashi qarori bilan me‘yoriy hujjatlarning bajarilishini o‘rganish;

v) maxsus qaror asosida muayyan hujjatlarning bajarilishini monitoring qilish.

E‘tibor berilsa, boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish tizimini nazorat qilish metodikasi bosqichma-bosqichlikka asoslaniladi. Shu sababli mazkur metodika oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini monitoring qilish choraklik va yillik shakldagi nazorat, hujjatlarning amal qilishdan chiqarish hamda ularni o‘rganib borish metodikasiga asoslaniladi. Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, monitoring – bu tekshiruv emas, aksincha, me‘yoriy hujjatlarning ijrosini huquqiy, pedagogik va tashkiliy jihatdan nazorat qilishdir. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim hujjatlarini yuritish bo‘yicha monitoring bu-hujjatlarning ijrosiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Mazkur masala bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini choraklik va yillik shaklda yo'lga qo'yish qanday amalga oshiriladi?
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amal qilishdan chiqarish tizimi nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini nazorat qilish metodikasi asoslarini nimalar tashkil etadi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayoni bo'yicha monitoring asoslarini konspekt qiling.

14-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha arxiv ishi

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini arxivlashtirish
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amaldagi shakllari yuritilishini yangidan nazoratga olish
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishning davlat talablari bajarilishini amalga oshirish

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, me'yor, hujjat, arxiv ishi, ko'nikma, malaka, tajriba.

Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini arxivlashtirish. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan ijrosi ta‘minlangan va amal qilishdan chiqarilgan hujjatlar huquqiy, ijtimoiy hamda siyosiy ahamiyatiga ko‘ra arxivlashtirib boriladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta‘limga oid me‘yoriy hujjatlarni *arxivlashtirish* o‘ziga xos yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Bu borada quyidagilarga amal qilish huquqiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi:

a) boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlari Sinf rahbarlari tomonidan ijrosi nazorat qilinadi va maktab Pedagogik kengashi qarori bilan maxsus jihozlangan honada arxivlashtiriladi;

b) umumiy o‘rta ta‘lim maktablari me‘yoriy hujjatlarining ijrodan chiqarilgan variantlari tuman va shahar arxiv bo‘limlarida arxivlashtiriladi hamda saqlanadi;

v) boshlang‘ich ta‘limga oid davlat me‘yoriy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi taqdimnomasiga asosan Markaziy arxivda arxivlashtiriladi hamda saqlanadi.

Mazkur arxivlashtirish va hujjatlarni saqlashning muddati 5 yil. Har qanday hujjat ta‘lim muassasasidan 5 yildan keyin Markaziy arxivga tadim etiladi.

Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, hozirgi zamon rivojlanish jarayonida boshlang‘ich ta‘limga oid me‘yoriy hujjatlarni arxivlashtirishda elektron variantlarga ham e‘tibor berilmoqda. Unga ko‘ra, hujjatlarni elektron variantlari maxsus texnik vositalar

asosida arxivlashtirilib, saqlash uchun taqdim etiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi tomonidan keyingi yillarda me'yoriy hujjatlarning elektron shakllarini arxivda saqlash bo'yicha takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Chunki arxiv jarayonida videodisk, audiodisk kabi texnik vositalarning murakkabligi yuzaga kelmoqda va shu sababli bunday texnik vositalardan hujjatlarning elektron variantlari o'chib ketmasligi bo'yicha texnologik takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu sababli bugungi kunda ham me'yoriy hujjatlarni arxivlashtirish hamda saqlashda qog'oz shaklning saqlanib qolishi davom etmoqda. Tajriba shuni ko'rsatadiki, maxsus qog'ozlarda arxivlashtirilgan hujjatlar yuz-ikki yuz yil mobaynida o'chmaydi. Chunki buning misoli sifatida qadimgi manbalarimizning maxsus qog'ozlarga kiritilganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur ko'nikmalarni egallashi ularning kasbiy ko'nikmasini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amaldagi shakllari yuritilishini yangidan nazoratga olish. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini arxivlashtirishning asosiy masalalaridan biri ularning *saqlanishini nazoratga olishdir*. Bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etaladi:

a) boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy hujjatlar maxsus qoidalar asosida arxivlashtiriladi (masalan, ular shunchaki oddiy papkaga tikib qo'yilmaydi va hujjatlar papkaga tikilganida nisbatan havo kirib turishi qoidasiga amal qilinadi, aks holda hujjatlarning yozuvi o'chib ketadi);

b) arxivda saqlanayotgan hujjatlarning nazorati ham qoidalariga asoslanadi (masalan, har 6 oyda muayyan hujjat varaqlab ko'riladi va ularning saqlanish jarayoni tekshiriladi, maxsus laboratoriya sharoitida ishlab chiqilgan kukunlar qog'ozga sepiladi);

v) arxivda saqlanayotgan hujjatlarning nazoratini amalga oshirishda maxsus mutaxassislar ishtirok etishiga amal qilinadi (masalan, pedagoglar, texnik mutaxassislar, arxivchilar, laborantlar, tarixchilar kabilardan iborat mutaxassislar guruhi).

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amaldagi shakllari yuritishini nazoratga olishda asosiy e'tibor arxivlashtirish, ularni saqlash va muntazam nazorat qilib borish asoslariga tayanadi. Shu sababli bugungi rivojlanish jarayoni mazkur ko'nikmalarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishning davlat talablari bajarilishini amalga oshirish. Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limni boshqaruvida me'yoriy hujjatlarni yuritishning *davlat talablari* bajarilishini amalga oshirish asosiy masalalardan

hisoblanadi. Bu borada Ish yuritish reglamentiga ko'ra quyidagi talablar belgilangan:

a) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishda aniqlik, shaffoflik va demokratiklik mezonlariga asoslanish;

b) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini muntazam ravishda oshkora yuritib borish va ularning ijrosini ommalashtirish;

v) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari bo'yicha o'qituvchilarning malakaga ega bo'lishiga erishish.

Innovation jamiyat va demokratik qadriyatlar muhiti sharoitida boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini "yopiq holatda", ya'ni hujjatlarning ijrosini jamoatchilikdan yashirin holda yuritish amaldan chiqarilgan. Aksincha, boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari belgilangan davlat talablariga binoan oshkora yuritilishi demokratik qadriyatlar tizimiga kiradi. Ayni paytda, maxsus o'rganishlar natijasida muayyan o'quvchilarda aniqlangan pedagogik, psixologik va fiziologik kamchiliklar oshkor etilmaydi hamda ular ifodalangan me'yoriy hujjatlar maktab Pedagogik kengashi tomonidan qat'iy nazorat qilinadi. Rossiyalik pedagog olim Konstantin Ushinskiy XIX asrning oxirlarida muayyan o'quvchilarda uchraydigan kamchiliklar aks etgan hujjatlarni ommaviylashtirish pedagogik qonuniyatdan tashqari holat, deb e'lon qilgan edi. Olimning mazkur fikri pedagog mutaxassislar tomonidan yakdillik bilan qabul qilinib, unga bugungi kunda ham amal qilib kelinmoqda. Chunki o'quvchilarga oid muayyan me'yoriy

hujjatlarning oshkor etilishi Bola huquqlari konvensiyasiga zid hisoblanadi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha arxiv ishi o'ziga xos arxivlashtirish, nazoratga olish va davlat talablarini bajarish bilan xususiyatlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunga qadar pedagogikamizda me'yoriy hujjatlar bo'yicha umumiy tushuncha berib kelingan. Bundan keyin boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limga oid me'yoriy hujjatlar bo'yicha kasbiy malakaga ega bo'lishi taqozo etiladi, chunki jamiyatimizning demokratlashuvi shuni taqozo etadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini arxivlashtirish qanday amalga oshiriladi?
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining amaldagi shakllari yuritilishini yangidan nazoratga olish nimalardan iborat?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishning davlat talablari bajarilishini amalga oshirish nimalarga asoslanadi?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha arxiv ishi asoslari o'zlashtiring va konspekt qiling.

15-mavzu: Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yangiliklarni o'rganib borish tizimi

Reja:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayoni texnologiyalar vositasida o'rganib borish
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yangiliklarni kuzatib borish
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha to'plangan tajribani ommalashtirish.

Tayanch tushunchalar:

Ta'lim, boshlang'ich, me'yoriy, hujjatlar, yuritish, yangiliklar, o'rganish, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini texnologiyalar vositasida o'rganib borish. Mamalakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimi keyingi 5 yil davomida innovasion yondashuvlar asosida rivojlanib bormoqda. Chunki boshlang'ich ta'limda keyingi yillarda quyidagi funksional o'zgarishlar ro'y berdi:

- boshlang'ich ta'limning alifbo o'rgatish funksiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotiga o'tkazildi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim va Prezident maktablariga tayyorlanmoqda;
- boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish an'anasi tarkib topdi;

- boshlang'ich ta'limga axborot-kommunikasion vositalarga asoslangan texnologiyalar joriy etib borilmoqda va h.k.

Mazkur funksional o'zgarishlar boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayonini *maqbul texnologiyalar* asosida o'rganib borishni taqozo etadi. Shu jihatdan quyidagi texnologiyalar asosida me'yoriy hujjatlarni yuritish jarayonini o'rganib borish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim hujjatlari yuritilishini onlayn vositasida o'rganib borish texnologiyasi;

b) boshlang'ich ta'lim hujjatlari yuritilishini yillik monitoring asosida o'rganib borish texnologiyasi;

v) boshlang'ich ta'lim hujjatlari yuritilishini virtual shaklda o'rganib borish texnologiyasi.

Ushbu texnologiyalar masofadan turib, axborot-kommunikasion vositalarga tayangan holda boshlang'ich ta'lim hujjatlarini yuritilishi jarayonini o'rganib borishga asoslangan. Bu texnologiyalar tezkorligi, qulayligi va vaqt tejamkorligi jihatidan muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, onlayn texnologiyasi vositasida mamlakatimiz hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritilishini tezkor o'rganish imkoniyati mavjud. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bunday texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Bunda mazkur o'quv fani hamda mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yangiliklarni kuzatib borish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan barcha sohalar qatorida ta'lim tizimini boshqarish jarayoniga mutalaqo yangicha yondashuvlar asosida munosabatda bo'lish joriy etilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha *yangiliklarni kuzatib borish* muhim masalalardan hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlariga kiritilayotgan yangiliklar va o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish;

b) boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarining ijro muddatiga e'tibor berish va amalda to'xtatilgan hujjatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib borish;

v) davlat ta'lim standartlari va malaka talablari, o'quv reja va dasturlari ijrosi bo'yicha yangi tavsiyalar hamda ko'rsatmalarni o'rganib borish.

Buning natijasida boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishga doir bo'layotgan yangiliklarni kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunga qadar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi chuqurlashtirilgan tarzda shakllantirilgan emas. Shu sababli hozirgi rivojlanish jarayoni bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmasini chuqurlashtirilgan tarzda shakllantirish taqozo etiladi. Buning uchun

ta'kidlanganidek, me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha yangiliklarni kuzatib borishga odatlanish kerak.

Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, boshlang'ich ta'limni me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yangiliklarni kuzatib borish talabalar tomonidan erkin va ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunda kitoblardan foydalanish, Internet global tarmog'i ma'lumotlari bilan ishlash va maxsus nashrlarni o'rganish kabi ishlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan ixtiyoriy tanlanishi lozim. Buning natijasida me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha yangiliklarni kutilgan darajada kuzatib borish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha to'plangan tajribani ommalashtirish. Milliy pedagogikamizda muayyan o'ziga xos tajribalarni *ommalashtirish* an'anasi mavjud edi. Unga ko'ra, muayyan o'qituvchi, o'qituvchilar guruhi yoki maktab jamoasining o'ziga xos tajribalari keng joriy etilib, hududlarga taqdim qilinardi. Buning natijasida mamlakatimiz ta'lim tizimida bir qator o'ziga xos tajribalar amal qilib, ularning ta'lim tizimini rivojlanishidagi imkoniyatiga tayanilar edi. Keyingi paytlarda mazkur tajriba susaygandek ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha to'plangan tajribalarni ommalashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagicha yondashuv kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz:

a) muayyan o'qituvchi yoki sinf rahbarining me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha tajribasini ommalashtirish;

b) muayyan umumiy o'rta ta'lim maktablarining me'riy hujjatlarni yuritish bo'yicha tajribasini ommalashtirish;

v) muayyan tuman, shahar va viloyatlar umumiy o'rta ta'lim maktablarining me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha tajribasini ommalashtirish.

Bunday yondashuv me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha o'ziga xos tajribalarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Chunki tajriba – bu muayyan jarayonning eng maqbul yo'llari, metodlari va texnologiyalarini beruvchi o'ziga xos malaka hosilasidir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha to'plangan tajribalarni ommalashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yangiliklarni o'rganib borish tizimi o'ziga xos xususiyatlar ega bo'lib, unda me'yoriy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgarishlari texnologiyalar asosida o'rganib borish, amalga oshirilayotgan yangiliklarni kuzatib borish va to'plangan tajribalarni ommalashtirish muhim o'rin tutadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur masalalar bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish jarayoni texnologiyalar vositasida o'rganib borish qanday amalga oshiriladi?
2. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yangiliklarni kuzatib borish asoslarini nimalar tashkil qiladi?
3. Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha to'plangan tajribani ommalashtirish deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha yangiliklarni o'rganib borish tizimi asoslarini o'rganing va konspekt qiling.

Mazkur 3-modulda boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini yuritish samaradorligi masalasi bo'lajak o'qituvchilarning hujjatlarni yuritish bo'yicha individual tajribasini shakllantirish, ularni ilg'or tajribalar bilan qurollantirish, hujjatlarni yuritish texnologiyalari bilan tanishtirish, hujjatlar yuritilishini monitoring qilib borish, arxiv ishi va me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha yangiliklarni o'rganib borish tizimi asosida yoritilgan. Ushbu masalalar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy-metodik ko'nikmaga ega bo'lishi tavsiya etiladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. // [www. google.uz](http://www.google.uz)
2. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021
3. Karimjonov A., Jabborova O. va boshq. Pedagogik tizimni boshqarishning me‘yoriy asoslari. – Toshkent, 2021
4. Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2022

Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

1. Boshlang‘ich ta‘limning asosiy me‘yoriy hujjatlari bo‘yicha tegishli ma‘lumotlarni to‘plang.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunini o‘rganib chiqing.
3. Boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standartlari va malaka talablarini konspekt qiling.
4. TIMSS xalqaro baholash dasturi mazmunini o‘rganing.
5. STEAM xalqaro baholash dasturi qoidalarini konspekt qiling.
6. TALISS xalqaro baholash talablari bo‘yicha referat tayyorlang.
7. Boshlang‘ich ta‘limning me‘yoriy hujjatlarini yuritish metodikasi bo‘yicha tasvirli ishlanma tayyorlang.
8. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini tizimlashtirish va takomillashtirish bo‘yicha tegishli adabiyotlar bilan tanishib chiqing.

9. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha ziyonet.uz ta‘lim portali va Internet global axborot tarmog‘i orqali ma‘lumotlarni o‘zlashtiring.

10. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha hisobot tayyorlash tizimini o‘rganing va uning asoslarini konspekt qiling.

11. Boshlang‘ich ta‘limning me‘yoriy hujjatlarini yuritishga doir ishlanma tayyorlang.

12. Boshlang‘ich ta‘limning me‘yoriy hujjatlarini kompyuterlashtirish va raqamlashtirish asoslarini o‘rganing.

13. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini monitoring qilib borish metodini o‘rganing.

14. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini arxivlashtirish bo‘yicha tegishli adabiyotlar bilan tanishing.

15. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunini o‘qib chiqing.

16. Boshlang‘ich ta‘lim me‘yoriy hujjatlarini yuritish bo‘yicha konspekt daftaringizning kompyuter vositasida elektron variakntini tayyorlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. // [www. google.uz](http://www.google.uz)

2. Ahliddinov R. O‘zbekiston Respublikasida maktab ta‘lim tizimini boshqarishning me‘yoriy xususiyatlari. – Toshkent, 1997

3. Djurayev R. Ta‘lim menejmenti. – Toshkent, 2006

4. Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2022

5. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022
6. Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiya. – Toshkent, 2021
7. Karimjonov A., Jabborova O. va boshq. Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari. – Toshkent, 2021
8. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021
9. Mirqosimov M. Maktab boshqaruvining nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent, 1995
10. Turg'unov S. Zamonaviy maktab rahbarlarining funksional vazifalari. – Toshkent, 2005

Glossariy

Boshlang'ich ta'lim – mamlakatimizda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunga asosan amalga oshiriladigan 1-4-sinf o‘quvchilariga bilim berish, ularni tarbiyalash va faoliyatga tayyorlash tizimi

Boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlari – boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish va samaradorligiga erishishga yo'naltirilgan qonun hujjatlari, davlat ta'lim standartlari va malaka talablari, o'quv rejalar va dasturlar majmui

Boshlang'ich ta'limning xalqaro baholash dasturlari – TEMSS (4-sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligi va o‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlash), STEAM (tabiiy fanlar, matematika, muhandislik va san’at fanlari bo‘yicha o‘quvchilarning bilim hamda ko‘nikmasini baholash) va TALIS (o‘qituvchilarning kasbiy bilimi, ko‘nikmasi va malakasi darajasini o‘rganuvchi) dasturlar. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning mazkur xalqaro baholash dasturlarini joriy etish amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini tizimlashtirish – boshlang'ich ta'lim hujjatlarini qoidalarga binoan tartiblash, ularning ijro muddatlarini shakllantirish va yuritish asoslarini belgilash majmui.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni takomillashtirib borish – boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini tizimlash, raqamlashtirish va ularni samarali yuritishning yo'llari majmui

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha individual tajribalar – oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining me'yoriy hujjatlar bo'yicha tegishli adabiyotlar bilan ishlash, izlanishlar olib borish va individual tajribani egallashga yo'naltirish tizimi.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritishni texnologiyalashtirish – boshlang'ich ta'lim hujjatlarini kompyuterlashtirish, ularni raqamlashtirish va ish yuritishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirib borish jarayoni.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish monitoringi – boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlari ijrosi bo'yicha choraklik va yillik hisobot tayyorlash, ijrosi ta'minlangan hujjatlarni amal qilishdan chiqarish va hujjatlarning ijrosini pedagogik nazorat qilib borish jarayoni.

Boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini yuritish bo'yicha arxiv ishi – boshlang'ich ta'lim me'yoriy hujjatlarini arxivlashtirish, ularni saqlash va bu boradagi davlat talablarini bajarish tizimi.

Jabborova O.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA
ME‘YORIY XUJJATLARNI YURITISH**

Muharrir:	X. Taxiroy
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/₁₆. “Times new roman” garniturası, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog’I 8,75. Adadi

100 dona. Buyurtma № 113

Zebo prints MCHJda chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,

22-harbiy shaharcha

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN